

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta  
maxsus ta'lim vazirligi**

**Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi  
Andijon davlat universiteti**

**Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası**

**5141600 – BTSTI yo'nalishi  
4 – bosqich 3 - guruh talabasi**

**Ahmatxonova Zulayxonning**

**“Boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumini o'rgatishda o'quvchilarning bilish  
faolligini oshirish” mavzusidagi**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

**T. G'aniyev**

**Andijon – 2012**

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Boshlang'ich sinflarda grammatika o'qitishning pedagogik-psixologik va metodik asoslari.	
1.1. Ona tili o'qitishning metodik asoslari.....	8
1.2. Boshlang'ich sinflarda "Ot" mavzusini o'rgatishning nazariy asoslari...15	
1.3. Ona tilidan no'anaviy dars usullarini qo'llash orqali o'quvchilarning bilish faolligini oshirish.....	36
II. bob. "Ot" mavzusini o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilish faolligini oshirish.	
2.1. "Ot" mavzusini o'rgatish metodikasi.....	40
2.2 Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini o'rgatish.....	43
2.3 Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatish.....	44
2.4 Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishini o'rgatish.....	46
2.5 3 - sinfda ot so'z turkumi ustida ishlash.....	50
2.6. "Ot" mavzusini o'rgatishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish.....	61
Xulosa.....	73
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	74

## **KIRISH**

Har bir millatning «millat» deb tan olinishi uchun bir qancha omillar talab qilinadi. Ana shulardan biri esa shu millatning o'z tiliga ega bo'lishidir. Bizning mustaqil yurtimiz ham Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiydek bobolarimiz sayqal berib dunyo e'tiborini o'ziga jalb etgan ona tilimiz - o'zbek tilimizga ega.

Til har bir millatning milliy boyligi. Millatning milliy an'analari, tarixi, qadriyatlari ana shu til orqali avloddan-avlodga o'tib keladi. Ayni shu sababdan ta'limning barcha turlarida ona tili o'qitilishi salmoqli o'rin egallaydi. O'z fikrini erkin bayon qilish, og'zaki va yozma nutqda so'z va iboralardan o'rinli foydalana olish malakalari aynan ona tili darslarida shakllantiriladi. Boshqa fanlarga nisbatan ona tili darslarida o'quvchi ma'naviyatini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish yuzasidan amaliy ishlar olib borish imkoniyati ko'proq, chunki ona tili darslarida ular mashqlar bilan ishlash, gap tuzish, gaplarni tahlil qilish, matn yaratish kabi ishlarini bevosita o'zlari bajarishlari davomida o'zlarining shaxsiy fikrlarini ham bayon qilishlariga to'g'ri keladi. O'quvchilarni to'g'ri fikrlashga o'rgatish, xalqimiz manfaatlariga zid qarashlarni bartaraf etish dars davomida o'qituvchiga yuklatiladigan muhim vazifalardan biridir. O'quvchiga bilim berish jarayonida ana shunday keng qamrovli vazifani bajara olish uchun o'qituvchi darsni to'g'ri tashkil qila olishi kerak va bu vazifani bizga «Ona tili o'qitish metodikasi» fani o'rgatadi.

Ona tili o'qitish metodikasi o'quvchilarni «...mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, ularning lug'at boyligini oshirish, o'zgarlar nutqini tinglay va anglay olish, fikrni aniq va ixcham ifodalash, so'z tanlash va uni o'rinli qo'llash, og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikrni ifodalashda shakl va mazmun uyg'unligiga mantiqiy mukammallikka erishish, "talaba - ta'lim- o'qituvchi" munosabatlarini to'g'ri tashkil etish - ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi.»<sup>1</sup>

Yuqorida sanab o'tilgan omillarning barchasi inson hayotida muhim bo'lib, ularni har bir o'quvchi mukammal egallashi lozim va buning uchun o'qituvchi ona tili o'qitish metodikasini yaxshi bilishi talab etiladi.

Mustaqil fikrlovchi, ijodkor, yangiliklarga intiluvchi shaxslarni tarbiyalash uchun, nafaqat ona tili darslari, balki barcha fanlarni yangicha, zamonaviy usullardan foydalanib tashkil etish bugungi kun ta'lim sohasining muhim talabidir. Biz ham o'z dissertatsiyamiz orqali ona tili darslarida foydalaniladigan ta'limiy vositalarga yangicha yondoshish, o'quvchilar fanni o'zlashtirishlarida qulaylik yaratish uchun yangi yo'nalishlar topishga harakat qildik.

---

<sup>1</sup> B.To'xliyev. O'zbek tili o'qitish metodikasi/o'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi. T. - 2006.

**Tanlangan mavzuning dolzarbligi** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida: «Milliy dasturning amalga oshirilishi jamiyatda mustaqil fikrlaydigan shaxsning shakllanishiga olib keladi. Bunday shaxslarning ko'payishi jamiyatda ongli yashash tizimini vujudga keltiradi. Odamlar olomon bolib yashashdan bosh tortadilar, har bir kishi o'z aqli, o'z mehnati, o'z xulosasi bilan yashay boshlaydi. Eng asosiysi bunday kishilarga chetdan hech qanday nopok kuch, buzuq g'oyalar, quruq shiorlar, chaqiriqlar bilan ta'sir etib bo'lmaydi. Bunday odamlarni o'z tanlagan yo'llari, maqsadlaridan hech qanday kuch toydira olmaydi. Aynan shu xislatlar milliy xavfsizlikning mustahkamlanishiga olib keladi», - deb ta'kidlagan edi. Hayotga ziyrak ko'z va yangicha fikrlar bilan qarovchi barkamol insonni shakllantirish, uning natijasi o'laroq izlanuvchan, ijodkor, mustaqil fikrlovchi, yuksak ma'naviyatli, kelajakda yurtimizni eng rivojlangan mamlakatlar safiga olib kiruvchi mutaxassislar tayyorlash bugungi kun pedagoglarining muhim vazifasidir. Shuning uchun ta'lim - tarbiya jarayonida o'quvchilarni ijodiy faolligini, izlanuvchanligini, e'tiqodini, qiziquvchanligini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi texnika juda rivojlangan bir davrda axborot almashuvi, ma'lumotlar qabul qilish tezligi oshib ketgan. Deyarli har bir xonadonda kompyuter va boshqa zamonaviy taxnikalar bo'lib, ular allaqachon oddiy rozg'or buyumlariga aylanib bo'lgan. Shunday ekan, biz uyida komp'yuter orqali internetdan ma'lumotlar olib kelgan o'quvchini oddiy ko'rsatmali qurol, yoki tarqatmalar bilan darsga jalb qila olmaymiz. O'qituvchi o'quvchidan albatta bir necha qadam ilgari yurishi kerak, demak, darslarni tashkil etishda shunday ta'limiy vositalar topish kerakki, u o'quvchini o'ziga jalb qilib olsin. Biz ana shu xususida o'z fikrlarimizni ushbu ishimizda yoritishga harakat qildik. O'quvchilarni bilim olishga qiziqishini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonida komil insonni voyaga etkazish uchun qo'llanilayotgan samarali yo'l, shakl, metodlarni tanlash yo'nalishiga modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yondashish haqida fikr yuritdik.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, boshlang'ich sinflarda "Ot" mavzusini o'rgatishning optimal yo'llarini izlab topish, dars jarayonida ta'limiy o'yinlarini qo'llash orqali "Ot" mavzusini tushuntirishning tez va oson yo'llarini ishlab chiqish.

**Ishning maqsad va vazifalari:**

Ona tili o'qitilishida qo'llanilayotgan turli ta'limiy vositalar turlari, ularni qo'llanish darajasini o'rganish.

Shu mavzuga doir ilmiy asoslar bilan tanishish. Noan'anaviy darslarni tashkil etishda ta'limiy vositalarning o'rnini aniqlash.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ta'limiy vositalardan foydalanishga doir ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

O'quvchilarni bilish faolligini oshirishga asos bo'luvchi yangi ta'limiy vositalar yaratish va ularni samaradorlik darajasini aniqlash.

Ona tili darslarida muammoli vaziyatlar yaratish va o'zlashtirish samaradorligini amaliyotda sinab ko'rish.

**Tadqiqot ob'ekti:**

Tadqiqotning ob'ekti Andijon shahridagi 43-, 50- maktablarning boshlang'ich sinflari.

**Tadqiqot predmeti:**

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ta'limiy vositalar - mashqlar, ko'rsatmali qurollar, tarqatmalar, ta'limiy o'yin, diktant, bayon va insholar ustida ishlash.

**Tadqiqotning ilmiy farazi:**

Boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy ta'lim texnologiyalari qo'llansa;

Darslarda differensiallash metodi bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni yaratish va ular ustida ishlash yo'lga qo'yilsa;

Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamfikrligi yo'lga qo'yilsa;

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi izchil pedagogik tizim belgilanib, amaliyotga tatbiq etilsa, o'quvchilarning bilish malakalarining yuqori darajada bo'lishiga olib keladi.

**Tadqiqot metodlari:**

O'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, kuzatish, savol-javob, test so'rovlari, pedagogik eksperiment.

**Tadqiqotning metodologik asoslari:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, Ozbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlari», Sharq va g'arb pedagogikasidagi nazariy yondashuvlar, ilg'or pedagogik tajribalar, shuningdek, mavzuga oid ilmiy-pedagogik va psixologik manbalar, o'quv-metodik qo'llanmalar.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning bilish faolligini oshirishda ta'limiy vositalarga yangicha yondashish zaruriyati ko'rsatib berilganligi;

Ona tili darslarini tashkil etishda muammoli vaziyatga o'quvchilarni olib kirish va undan chiqish yo'llarini o'quvchilarga tushuntirishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi;

Turli ta'limiy o'yinlar va turli ta'limiy vositalarning samaradorlik darajasi aniqlanganligi;

**Tadqiqotning nazariy ahamiyati:**

Tadqiqot natijasida pedagogika fani boshlang'ich sinf ona tili darslarida ta'limiy vositalardan unumli foydalanishga doir nazariy qarashlar, yangicha usullar, metodik maslahat va fikr - mulohazalar bilan boyitiladi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati:**

Tavsiya etilgan ta'limiy vositalar amaliyotda qo'llansa, boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining qiziqarli, o'zlashtirilishi yengil, sifat darajasi yuqori bo'lishiga yordam beradi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi:**

Mavzu K.Qosimova, T.Ashrapova, M. Odilova, B. To'xliyyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova, K.Yunusovlar tomonidan o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasidagi oliy o'quv yurtlarida bir qancha ilmiy ishlar olib borilgan.

# **I BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK VA METODIK ASOSLARI**

## ***1.1. ONA TILI O'QITISHNING METODIK ASOSLARI***

Prezidentimiz I. A. Karimov o'zining «Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish - barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir» asarida O'zbekistonning kelajagi, iqtisodiy rivojlanishi xususida fikrlarini bayon etar ekan, unda bugungi kun yoshlariga alohida to'xtalib shunday deydi: «Hozirgi shiddatli zamonning real haqiqati shundan iboratki, intellektual va ma'naviy boylikka ega bo'lgan xalq va millat hech shubhasiz, haqli ravishda bugungi va ertangi kunga egalik qila oladi. Biz yosh avlodimizni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash bilan birga, ularning umumbashariy taraqqiyot yutuqlari, zamonaviy bilimlarni har tomonlama chuqur va puxta egallashi uchun barcha shart-sharoitni yaratib berishimiz lozim. Chunki hozirgi paytda davr bizning oldimizga qo'yayotgan yuksak talablarga javob berishga qodir bo'lib yashash, turli-tuman murakkab muammolarni o'z vaqtida va oqilona yechish uchun albatta zamonaviy bilim va tafakkur suv va havodek zarur.

Yoshlarimizni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, barcha sohalarda dunyodagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan, biz boshlagan ishlarning munosib davomchilari, mard va jasur, komil insonlar qilib tarbiyalash - bu nafaqat katta baxt, ayni paytda bu avvalo o'zbek xalqining qadimiy shuhratini qayta tiklash, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirish, rivojlangan davlatlar safidan munosib o'rin egallashining asosiy sharti va garovidir.»<sup>1</sup>

Bo'lajak mutaxassislarni aqliy intellektual, nutqi ravon, ahloqiy va jismoniy jihatdan komil inson bo'lib yetishishlarida «Ona tili o'qitish metodikasi» fanining o'rni beqiyos. Mazkur fan pedagogika fanlari sistemasida mustaqil fan bo'lib shakllandi. «Ona tili o'qitish metodikasi» fani ona tili darslarini tashkil etishda nazariy va amaliy asoslarini, ta'lim-tarbiyaning barcha qirralarini, mazmun, metod, shakl va vositalarni keng miqyosda yoritib beradi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani: nimani o'qitish kerak?, qanday o'qitish kerak?, nega xuddi mana shunday o'qitish kerak? degan savollarga javob tayyorlaydi. Ya'ni, ona tili darslarida foydalaniladigan darsliklar, qo'llaniladigan metodlar va tanlangan metodlardan kutilayotgan natijalar, bularning hammasi boshlang'ich sinflarda ona tili metodikasi fanining predmetidir.

Ona tili o'qitish metodikasining mazmuni ona tili darslarini tashkil etishga doir metodik ko'rsatmalar berishgina emas, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlarni

---

<sup>1</sup> Karimov. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish - barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. -T.:«O'zbekiston»NMIU, 2007.-200 b.

o'z ichiga olgan ilmiy asoslarni ishlab chiqish hamdir. Ona tili o'qitish metodikasi quyidagi fanlar nazariy asoslari bilan chambarchas bog'liqdir:

1. Falsafiy bilish nazariyasi;
2. Psixologiya;
3. Pedagogika;
4. Tilshunoslik;
5. Adabiyotshunoslik nazariyasi;
6. Ilg'or maktab ish tajribasi.

Pedagogika fani o'qitish prinsiplari, ta'limning mazmuni, ta'limni tashkil etish shakllari yuzasidan yo'llanma berar ekan, albatta, bu asoslar ona tili darslarini tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi. O'qitishning ilmiylik, sistemalilik va izchillik prinsipi, onglilik va faollik prinsipi, ko'rsatmalilik prinsipi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish prinsipi, nazariyani amaliyot bilan bog'lash prinsipi, o'quvchilarni yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish prinsipi – bularning hammasi ona tili darslarida ham qo'llanib kelinadi.

Ona tili darslarini tashkil etishda bolaning o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga xarakter, temperament, qobiliyatlar kiradi. Bu xususiyatlar har bir shaxsda o'ziga xos shakllanadi. Ba'zilar harakatchan, qiziquvchan, tadbirkor, tez tushunadigan, tez kirishib keta oladigan shaxslar bo'lsa, ba'zi birlari esa sust, e'tiborsiz, ehtiyotkor bo'lishlari mumkin. Ana shunday xarakterdagi o'quvchilar bilan ishlash usullarini bizga psixologiya fani o'rgatib, albatta, ona tili darslarida o'qitishni qanday tashkil etishimiz kerakligi xususida tasavvur beradi.

Hozirgi davrda o'qitishni tashkil etishda yangi-yangi metodlardan foydalanish yuqori samara berishi o'z isbotini topib bo'lgan, shuning uchun zamonaviy ta'limda o'qituvchilarni turli o'qitish metodlarni bilishi va uni samarali qo'llay olishi asosiy talablardan biri bo'lib qoldi. Ona tili darslarida ham o'tiladigan mavzuga qarab metod tanlash, darsni qiziqarli, tushunarli, ko'rsatmalilik asosida tashkil etish mavzuni o'quvchilar ongli ravishda o'zlashtirishlariga omil bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim davlat qonunini hayotga tadbqiq etishda muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tili o'qitish asosiy o'rin egallaydi. Ona tili dasturi quyidagi bilimlarni o'z ichiga oladi:

1. Savod o'rgatish, sinfdan tashqari o'qish va nutq o'stirish.
2. Sinfdan, sinfdan tashqari o'qish va nutq o'stirish.
3. Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish.

Bu bo'lim materiallarini birlashtiruvchi asosiy prinsip nutq o'stirish hisoblanadi. Nutq o'stirish boshlang'ich sinf ona tili ta'limida aniq amaliy yo'nalish beradi va bolalarga ongli o'qish, o'qiganlarini ravon gapirish va yozishga o'rgatadi;<sup>1</sup>

Maktabga kelgan bola odatda bemalol gapira oladi. Albatta uning lug'at boyligi u qadar keng bo'lmasada, har holda o'z fikrini atrofdagilarga yetkazib bera oladi, erkin bola o'z nutqini bir qancha qismlardan, ya'ni gaplardan, gap esa so'zlardan, so'z o'z navbatida bo'g'in va tovushdan tuzilishini hali bilmaydi.

Savod o'rgatish davrida u nutqni tahlil qilish haqida ilk ma'lumotlarni ola boshlaydi. Talaffuz qilinayotgan tovush va uni yozuvda ifodalovchi harf bilan tanishadi yozma va bosma harflarni ajrata boshlaydi.

Shu o'rinda davlat ta'lim standartlarida boshlang'ich sinflar uchun belgilab berilgan minimal darajani keltirsam:

1-sinf

O'quvchilar o'quv yili oxirida quyidagilarni bilishi lozim:

O'zbek alifbosidagi harflar nomini, unli va undosh tovushlarning belgilarini, jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni, bo'g'in ko'chirish qoidalarini.

Matnni sinf taxtasi va darslikdan husnixat qoidalariga rioya qilgan holda chiroyli, to'g'ri ko'chira olishi, talaffuzga mos bo'lgan 25-30 so'zli matnni harf va bo'g'inlarni tushurib qoldirmay, oshiqchasini qo'shmay yozishlari.

Imlosi qiyin bo'lgan so'zlarning talaffuzi va yozilishini ikki chiziqli daftarda chiroyli yozuv qoidalariga rioya qilgan holda yozish malakalarini egallashlari zarur. 12-25 so'zli matnli diktant yozishni bilishlari kerak.

2-sinf

O'quvchilar ona tilini o'rganish jarayonida quyidagi bilim ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

O'zbek alifbosidagi harflarning nomlarini, unli va undoshlarni.

Talablar:

a) imlo xatolarga yo'l qo'ymaslik.

b) ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi.

Diktant turlari: saylanma diktant, lug'at diktant, tanqidiy diktant, nazorat diktanti, yoddan yozuv diktant, ko'rsatish diktant.

3 – 4 gapdan iborat bo'lgan matnni yaratish.

Yozilishi va aytilishida farq qiluvchi so'zlarni to'g'ri yozish.

So'zlarga so'roq bera olish va shu so'zlar nimani bildirishini.

---

<sup>1</sup> Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi / Boshlang'ich ta'lim. T.: Sharq, - 1999, 480 b.

Atoqli otlarni bosh harf bilan yozishni.

Gapning mazmuniga ko'ra turlarini bilishi.

30-45 so'zli matn yuzasidan so'roq gaplardan tuzilgan tayyor reja asosida bayon yoza olish.

3- sinf

Tovush va harflarga oid bilimlar chuqurlashtiriladi.

O'zak va o'zakdosh so'zlarni bilish.

So'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni farqlay olish.

So'z turkumlaridan ot, sifat, son va fe'llarning ma'nolarini va so'roqlarini bilish.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari bilan birga, gap bo'laklari: ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklarni bilish.

65–70 so'zli matn yuzasidan birgalikda tuzilgan reja asosida bayon yoza olish.

4-sinf

4-sinfga borib o'quvchi 80-90 so'zli matnni ko'chirib va eshitib yoza olishi, sodda so'zlarni fonetik tahlil qilishi, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ajrata olishi, so'z turkumlarini bilishi, so'zlarni ko'plik va birlikda qo'llay olishi, kelishik qo'shimchalari, shaxs-son qo'shimchalari, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, yaqin ma'noli so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar haqida bilishi.

90-100 so'zli matn yuzasidan tuzilgan reja asosida bayon yoza olishi talab etiladi.

Sanab o'tilgan talablar yuqorida aytilganidek, eng minimal darajani belgilab berib, uni belgilashda o'quvchining yoshi, aqliy salohiyati hisobga olingani shubhasiz. Ona tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi boshlang'ich sinflarda sanab o'tilgan bilimlarni berish bilan birga, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va yo'naltiruvchi maqsadlarni umumiylikda amalga oshirish ishlarini ishlab chiqishdir.

«Ona tili o'qitish metodikasi» fani ana shu talablarni o'quvchilar to'la o'zlashtirishlari uchun amalga oshirish zarur bo'lgan ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'limiy vositalar, darsni tashkil qilish usullar, darsliklarga qo'yiladigan talablar haqida yo'llanma beradi va ilmiy asoslarni ishlab chiqadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini tashkil etishda ona tili o'qitishning beshta tamoyiliga asoslaniladi va bu tamoyillar yuqorida sanab o'tilgan standart me'yorlarni o'zlashtirishda muhim omil hisoblanadi.

1. Til materiyasiga e'tibor berish tamoyili.
2. Til ma'nolarini tushunish tamoyili.
3. Tilga sezgirlikni o'stirish tamoyili.
4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili.
5. Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili.

Maktabga endigina kelgan bolaga tovush haqida dastlabki ma'lumotlar berilar ekan, tovushning hosil bo'lishida nutq organlarining qatnashuvi, ularning tovushni talaffuz qilish paytidagi harakati haqida ham ma'lumot berib borilishi bolani tovushni to'g'ri talaffuz qilishiga va uni yozuvda ham to'g'ri yozishiga, unli va undosh tovushlarni to'g'ri ajrata olishiga sabab bo'lishi mumkin.

Keyinchalik, so'zlarni turkumlarga bo'lib o'rganish jarayonida til ma'nolarini tushunish tamoyili ayniqsa katta o'rin tutadi. Ot so'z turkumini o'rganish jarayonida mavhum otlarni o'quvchi bemalol ajrata olishi uchun, unda ana shu so'zni his qilish orqali aynan ot so'z turkumiga tegishli ekanini anglash malakasini hosil qilish kerak bo'ladi.

O'zbek tilida gaplar asosan ega, ikkinchi darajali bolak, kesm shaklida tuzilishi, o'zakka avval so'z yasovchi, so'ng so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar qo'shilishi kabi asosiy qoidalarni anglab olish nutqni ifodali bayon etish, savodli yozish malakasini egallash imkonini beradi.

O'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda, nutqni qiziqarli, tushunarli bayon etishda nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili asos bo'ladi.

Bayon va insholarni yozishda mavzuni to'la yorita olish, mazmunli matn yaratish, og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirilish tamoyili orqali yuzaga keltiriladi.

Umuman olganda, metodika tamoyillari o'quvchi bilan ishlashda amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalarni belgilab beradi. Bundan tashqari metodika pedagogik-psixologik ma'lumotlarga ham tayanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" asarida shunday savollarni o'rta qo'yadi: "Norasida bolaning miyasi, ongi nimani o'ziga singdira oladi, nimani qabul qilmaydi..."

Bolalarimizga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o'rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerak?"<sup>1</sup>

Bu savollarga pedagogik-psixologiya javob beradi, ta'lim jarayonida uchraydigan muammolarni bartaraf etish yo'llarini o'rgatadi, o'quv materialini tanlashda yordam beradi. Metodika psixologiya fani ma'lumotlaridan foydalanib o'quvchini to'g'ri baholash, fikrlash qobiliyatini o'stirish, ular bilan yakka tartibda ishlashda ma'lum yo'llanmalarga ega bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Barkamol avlod orzusi.

## ***1.2. BOSHLANG'ICH SINFLARDA "OT" MAVZUSINI O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI***

Narsalik ma'nosini ifodalaydigan va grammatik son, egalik, kelishik kategoriyalari bo'lgan mustaqil so'zlar ot deyiladi.

Ot tirik mavjudotlarning (kishi, parranda, hayvon, chumoli, asalari, chuvalchang, mikroob kabi), ob'yektiv borliqdagi yer va osmonga oid narsalarning (yer, quyosh, oy, dala, tosh, tog', suv, daryo kabi), o'simliklarning (paxta, jo'xori, sholi kabi), biron voqeaning (to'y, kengash, majlis kabi), fikrda narsa deb tushuniladigan hodisa, xususiyat, munosabatlarning (kurash harakat, qo'rqinch, yaxshilik kabi), shuningdek, o'rinning (joy, o'rtalik, tepalik kabi) va vaqitning (peshin, yoz, qish, bohor kabi) nomi bo'lishi mumkin.

Ot narsalik ma'nosini grammatik son, egalik va kelishik ma'nolari bilan birga ifodalaydi. Otlardagi son, egalik, kelishik kategoriyalari bu turkumning asosiy morfologik belgisidir. Bundan tashqari, bu turkumning belgisi sifatida maxsus ot yasovchi affikslarning mavjudligini ham ko'rsatish lozim. Masalan, bolalaringizga, ishchilarimizni so'zlari narsalik ma'nosini son (-lar), egalik

(-ingiz, -imiz), kelishik(-ga,-ni) ma'nolari bilan birga ifodalaydi. Ikkinchi sinfda esa maxsus ot yasovchi affiks (-chi) ham mavjud.

Ot gapda ko'pincha ega, to'ldiruvchi, qaratqich vazifasida keladi.

Ba'zan otlar sifatlovchi, kesim va hol vazifasini ham bajaradi. Masalan: Dalalarimizda po'lat traktorlar qator-qator. Bunda dalalarimizda-hol, po'lat-sifatlovchi, traktorlar-ega, qator-qator-kesim.

Otlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra dastavval ikkiga ajraladi:

a) atoqli otlar, b) turdosh otlar.

Bir xildagi narsa yoki hodisalardan birini ayirib ko'rsatadigan otlar atoqli ot deyiladi. Atoqli ot ayrim shaxs yoki narsaning maxsus nomidir. Masalan: Andijon-shaharlardan faqat birini ayirib ko'rsatuvchi nomdir.

Kishilarning ismi, familiyasi, geografik nomlar, tashkilotlarning, aholi punktlarining nomlari atoqli ot bo'ladi. Masalan: Erkin G'ulomov, Pomir, Sirdaryo, "Paxtakor" jamiyati, Toshkent, Qibray va boshqalar.

Otlarning asosiy ko'pchiligi turdosh otlardir.

Bir xildagi narsalarning, hodisalarning umumlashtiruvchi nomi turdosh ot deyiladi. Masalan: ko'cha, dala, uy, taraqqiyot, ong va boshqalar.

Atoqli otlar odatda ko'plik formada ishlatilmasliklari bilan turdosh otlardan farq qiladi.

Bir xildagi narsalarni ifodalash vazifasini bajarish natijasida atoqli ot turdosh otga ko'chadi. Masalan: amper, rentgen-olimlarning nomidan, bo'ston-shahar nomidan, avgust- Rim imperatori Avgust nomidan olingan.

Aksincha, turdosh ot ham atoqli otga ko'chadi. Bunda turdosh ot yakka narsani ajratib ko'rsatadigan bo'lib qoladi. Masalan: Sharq, G'arb, Oktyabr, Gulchehra, To'ti, Temir, Lola va boshqalar.

Ifodalangan tushunchaning xususiyatiga ko'ra turdosh otlarni aniq va abstrakt otlarga ajratish mumkin.

Bevosita narsa anglatadigan otlar aniq ot deyiladi: yer, o't, stol, aniq ot anglatgan narsalarni donalab sanash mumkin: besh kishi, uchta qo'y va boshqalar.

Mavhum tushunchani, belgini narsa sifatida anglatadigan ot abstrakt ot deyiladi: ozodlik, chidam, ong, baxt, yaxshilik, kattalik, muhabbat va boshqalar.

Abstrakt otga odatda ko'plik affiksi -lar qo'shilmaydi.

Turdosh otlarning birlik iborasi yakka narsani yoki narsalar to'dasini ifodalashi mumkin. Shunga ko'ra turdosh otlar yana yakka va jamlovchi otlarga ajratilishi mumkin.

Birlik formada bir turdagi narsalarning bittasini ifodalashi mumkin bo'lgan ot yakka - ot deyiladi. Masalan: stol, odam, bayroq, parta kabi. Birlik formada ham bir xil narsalarning to'dasini, jamini anglatadigan ot jamlovchi ot deyiladi.

Jamlovchi ot:

a) tub so'z shaklida bo'ladi: xalq, armiya, aholi, el, to'da, gala, poda kabi.

b) -chilik affiksi bilan yasalgan bo'ladi: ozchilik, ko'pchilik kabi. Otlarning birlik va ko'plik formalarda ishlatilishi grammatik son kategoriyasi deyiladi.

Otning birligi uning ayrim, yakka narsani yoki yakkalikka ajratilmaydigan narsalarni ifodalashidir. Otning birligini ko'rsatadigan maxsus affiks yo'q. Shu affikssiz holatning o'zi birlik deb qaraladi. Masalan: taxta, odam, uzum, to'da, xalq, tinchlik kabi.

Ba'zi otlar birlik formada bo'lsa ham, ayrim narsalar to'dasini anglatadi. Masalan: xalq, to'da, poda kabi. Bu otlar grammatik jihatdan birlik deb qaraladi, ammo ma'no jihatidan ko'p narsani bildiradi bunday ko'plik leksik-semantik ko'plik deyiladi. Jamlovchi otlarning ko'pligi leksik-semantik ko'plikdir.

Otlarda grammatik ko'plik -lar affiksi bilan ifodalanadi. Ko'plikning bunday maxsus affiks bilan ifodalanishi ko'plikning morfologik usul bilan ifodalanishi deyiladi. Masalan: stollar, bolalar kabi.

Ko'plikning morfologik usul bilan ifodalanishi ko'p narsaning ayrim-ayrim holda mavjudligini anglatishga asoslanadi.

Grammatik ko'plikni ifodalaydigan -lar affiksi, ko'plikdan tashqari, ko'plikdan kelib chiqqan yana shunday ma'nolarni ham ifodalashi mumkin:

1. Donalab sanalmaydigan narsalarning nomlariga -lar qo'shilganda, ularning ko'pligi emas, balki turli xillari yoki navlari anglashiladi. Masalan: suvlar (gaz suvlar), yog'lar (turli yog'lar), olmalar (turli nav olmalar) va boshqalar.

2. Ma'noni kuchaytiradi:

a) abstrakt otlarga qo'shilganda: Ayamdan naq balolarga qolaman.(S.Abd.);

b) aniq otning ma'nosini abstraktlashib, belgi anglatganda: Ishqing bilan ishim ohu afg'onlar, Hasratingda bo'ldi rangim somonlar. (S. Abd.)

v) doim yakka holda bo'ladigan narsa otiga qo'shilganda: Hojiona.-Hoy, hoy Rahima o'lgur, qachondan beri tiling chiqib qoldi?.. Hu tillaring kesilsin! (H.H.)

3. Qarindoshlik ifodalovchi otlarga egalik affiksidan keyin qo'shilganda -lar hurmat ma'nosini anglatadi. Masalan: "Dadamlar ham o'quvchilar",-dedi Gulnora. (H.N.)

4. Shaxs anglatadigan otlarga ( olmoshlarga ham) -lar qo'shilganda, ba'zan piching, kesatiq ma'nosi hosil bo'ladi. Masalan: Hamidulla... Saida kelayotganda... gapirgan hamma gaplarini bir og'iz so'z bilan bir pul qildi-qo'ydi... Saidaga yaqin kelib sekin so'radi: -Kechirasiz... So'raganning aybi yo'q... o'zlari kuyov qilganmilar?.. Kuyov qilish niyatlari bormi?.. Mavsumni o'tkazmasdan kuyov qilsalar, o'zlariga ham yaxshi, bizga ham yaxshi bo'lar edi. Tojixon o'zlaridan ibrat olsa, kamina kuyovlardan ibrat olsam, turmushimiz yaxshi bo'lib ketsa, ajab emas... (A.Q.)

5. Mashhur shaxslarning (yoki asar qahramonlarining) otlariga qo'shilganda, -lar affiksi atoqli otni jamlovchi turdosh ot ma'nosiga ega qiladi. Atoqli ot umumlashtiradi. Masalan: Onaxonlar bu yil paxta planini muddatidan ilgari bajardi. (I.R.)

6. Juft narsalarning otlariga -lar qo'shilganda, ularning har birini ta'kidlash ma'nosi hosil bo'ladi. Masalan: Go'zal uning ko'zlariga ko'proq yashnab chiroyli ko'rinar. (O.)

Narsaning ko'pligi maxsus miqdor bildiradigan so'zlarni, sonlarni ot oldida keltirish usuli bilan ham ifodalanadi. Bu usul sintaktik usul deyiladi. Chunki miqdor bildiruvchi so'z otning aniqlovchisi bo'lib keladi. Masalan: beshta daftar, bir necha odam kabi. Bunda ot birlikda bo'ladi.

Leksik-semantik va sintaktik ko'plik ayrim so'zning morfologik strukturasi bilan, formasi bilan bog'lanmagan: ammo morfologik ko'plik so'zning strukturasi bevosita aloqadordir.

Narsa yoki narsalik tushunchasining nutqdagi uch shaxsdan biriga taalluqli ekanligini ifodalovchi formalarning jami egalik kategoriyasi deyiladi. Masalan, egalik ma'nosi kitobim formasi bilan ifodalangan narsaning so'zlovchiga aloqador ekanligini anglatadi.

Egalik ma'nosi o'zbek tilida ikki usul bilan -morfologik va sintaktik usullar bilan ifodalanadi.

Egalik ma'nosini so'z negiziga maxsus affiks qo'shish orqali ifodalash egalikning morfologik usul bilan ifodalanishi deyiladi. Yuqorida kitobim so'zida egalik ma'nosi morfologik

usulda ifodalangan. Chunki unga grammatik egalik ma'nosini anglatadigan -im affiksi mavjuddir.

Ega mavjud bo'lgan gapning kesimi -niki olgan so'z bo'lganida ham egalik ma'nosi ifodalanishi mumkin. Bunday ifodalanish sintaktik usul deyiladi. Masalan: Bu kitob meniki. Bunda birlikdagi birinchi shaxs kishilik olmoshi kesim vazifasida qo'llanib, ega orqali anglashilgan narsa (kitob)ning birinchi shaxsning birligiga taalluqli ekanligi ifodalanadi.

Morfologiyada otlarning egalik ma'nosini maxsus affikslar orqali ifodalash muhim ro'l o'ynaydi.

Narsa yoki narsalik tushunchasining uch shaxsdan biriga taalluqli yoki mansubligini ifodalaydigan affikslar egalik affikslari deyiladi. Egalik affikslari shular: -(i)m, -(i)ng, -(i)miz, -(i)ngiz, -i(-si).

Egalik affiksi odatda ko'plik affiksidan keyin qo'shiladi: kitob+lar+im kabi.

Egalik affikslari nutqdagi uch shaxsga, birlik va ko'plik sonlarga ko'ra bo'linadi. Har bir egalik affiksi negizning so'nggi tovushi unli yoki undosh bo'lishiga qarab ikki variantda qo'llanadi. Bular:

	Birlik		Ko'plik	
	Unlidan so'ng	Undoshdan so'ng	Unlidan so'ng	Undoshdan so'ng
I shaxs (so'zlovchi)	-m	-im	-miz	-imiz
II shaxs (tinglovchi)	-ng	-ing	-ngiz	-ingiz
III shaxs (o'zga)	-si	-i	-si	-i
Masalan:				
I shaxs	echki+m	kitob+im	echki+miz	kitob+imiz
II shaxs	echki+ng	kitob+ing	echki+ngiz	kitob+ingiz
III shaxs	echki+si	kitob+i	echki+si	kitob+i

## 7. O'zbek tili

Egalik affiksi qo'shilgan ot odatda qaratqich kelishigidagi boshqa ot, olmosh yoki otlashgan so'z bilan sintaktik aloqada bo'ladi. Bu aloqa natijasida egalik affiksini olgan otdan anglashilgan narsaning qaratqich kelishigidagi so'zga qarashli ekanligi ifoda qilinadi.

Ba'zan egalik affiksi olgan ot (yoki ot singari qo'llangan so'z) chiqish kelishigidagi ot bilan bog'lanishi mumkin. Masalan, bolalardan bir to'dasi, talabalardan biri, o'quvchilardan ba'zilari kabi birikmalarda yuqoridagi qarashlilik ma'nosi anglashilmaydi. Chunki bu ma'noni anglatadigan qaratqich kelishigi yo'q. Egalik affiksi esa faqat aloqadorlik, mansublik ma'nosinigina ifodalaydi. Demak, bolalardan bir to'dasi kabi birikmada faqat grammatik egalik

(mansublik, aloqadorlik) ma'nosigina mavjuddir. Bu hol egalik affiksi qo'shilgan so'z belgisiz qaratqichga ega bo'lganda ham ko'rinadi. Masalan: bolalar uyi kabi. Shunday qilib bilan, egalik affiksi olgan ot, birinchidan, belgili qaratqich kelishigidagi ot bilan (Vatanimizning poytaxti), ikkinchidan, belgisiz qaratqich kelishigidagi ot bilan (tong chog'i, tush payti), uchunchidan, ayrim vaqtlarda chiqish kelishigidagi ot bilan (kitoblardan bir bog'lami) grammatik aloqaga kirishadi. Lekin egalik affiksi otning qanday gap bo'lagi vazifasida ekanini ko'rsatmaydi. Buni ko'rsatish kelishik kategoriyasining vazifasidir.

Stilistik maqsadlarga ko'ra ikkinchi shaxs egalik affiksining birlik formasi shu shaxsning ko'pligi uchun (senlarning kitobing, kitoblaring), ko'plik formasi esa birlik uchun (sizning dadangiz) qo'llanishi mumkin. Avvalgi holda kamsitish yoki o'zidan kichik deb bilish, keyingi holda esa hurmatlash, ulug'lash ma'nosi ifodalanadi. Hurmatga noloyiq shaxsga nisbatan hurmat formasi qo'llanganda, hurmat kesatiqqa aylanadi.

Ko'plik affiksi bilan birga qo'llangan uchinchi shaxs egalik qo'shimchasi ham hurmat, kesatiq, hazil kabi ma'no otsenkalarini ifodalash uchun xizmat qilishi mumkin: O'zlarining daraklarini eshitib keldim.

Egalik affiksi ko'plik sondagi otga -lar qo'shimchasidan keyin qo'shiladi (opalrim kabi). Ammo -lar hurmat uchun qo'llanganda, egalik qo'shimchasi odatda ko'plik qo'shimchasidan oldin qo'shiladi: opamlar, dadamlar kabi.

Birinchi va ikkinchi shaxs egalik qo'shimchasidan anglashiladigan grammatik son ma'nosi shu qo'shimcha qo'shilgan otdan anglashiladigan narsaning sonini ko'rsatmaydi, balki qaratuvchi shaxsning (otning) grammatik sonini bildiradi. Masalan, bizning kitobimiz, sizning kitobingiz birikmalarida kitob birlikdabo'lib, qaratuvchi shaxslar (biz, siz) ko'plikda. Bu ko'plik biz va siz so'zlarining o'z formalari orqali ham kitob -negiziga qo'shilgan egalik qo'shimchasi -imiz va -ingiz orqali ham ifodalanadi. Uchinchi shaxs egalik qo'shimchasi -si yoli -i birlik va ko'plik uchun umumiy. Narsaning birlikka yoki ko'plikka aloqador ekanligi egalik qo'shimchasi olgan so'zga bog'lanib kelgan qaratqich kelishigi formasidagi otning (yoki olmoshning, otlashgan so'zning) grammatik son formasiga qarab aniqlanadi. Masalan: uning kitobi -birlik, ammo ularning kitobi -ko'plikdir.

1. So'zning ikkinchi bo'g'inida kelgan tor unlilar (i,u) ba'zan egalik qo'shimchasi qo'shilganda tushib qoladi: o'g'il - o'g'li, burun - burni, og'iz - og'zi, bo'yin -bo'yni, ko'ngil - ko'ngli, o'rin - o'rni kabi.

2. Uchinchi shaxsdagi egalik qo'shimchasining ma'nosi ayrim so'zlarda anglashilmaydi. Shuning uchun egalik qo'shimchasi ikkinchi marta qo'shiladi: singil - singlisi, biri - birisi. 3. Shahar so'ziga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi a unlisi tushib qolishi ham, saqlanishi ham mumkin: shaharim - shahrim kabi. Ot yoki otlashgan so'zning fe'lga, otga (ba'zan boshqa bir turkum so'ziga) bo'lgan munosabatini, tobeligini ifodalaydigan formalarning

jami kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik otning sintaktik vazifasidan kelib chiqadigan grammatik ma'no bo'lib, quyidagi kelishik affikslari bilan ifodalanadi: -ning, -ni, -ga, -da, dan. Kelishik affiksi yo'q holat gapda kelishik affiksi bor holatlarga nisbatan alohida kelishik deb olinadi. Ot yoki otlashgan so'z gapda shu kelishik formalaridan biri vositasida boshqa so'zlar bilan grammatik aloqaga kirishadi. Masalan: Qizlar paxtani qoplarga joyladilar. (o.) Bu gapdagi paxta so'zi kelishik affiksi -ni vositasi bilan, qoplar so'zi -ga vositasi bilan joyladilar fe'lga tobedir, qizlar so'zi esa kelishik qo'shimchasi bo'lmagan formaga ko'ra joyladilar so'ziga nisbatan grammatik jihatdan hokim holatdadir.

Otlarning kelishiklar bilan o'zgarishi turlanish deyiladi. O'zbek tilida kelishik kategoriyasi o'z ichiga quyidagi olti kelishikni oladi: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi, o'rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi.

Kelishik bir so'zning boshqasiga tobeligini ko'rsatadigan grammatik kategoriya deyilgan umumiy ta'rifdan bosh kelishik mustasnodir. Chunki qaratqich, jo'nalish, tushum, o'rin-payt va chiqish kelishiklari bir so'zni boshqa so'zga tobelash uchun xizmat qilsa, bosh kelishik, aksincha, boshqa so'zni bosh kelishikdagi otga tobelaydi. Masalan, kesim vazifasidagi so'z egaga-bosh kelishikdagi so'zga tobe bo'ladi. Shuning uchun bosh kelishik to'g'ri kelishik deyiladi, qolgan beshta kelishik esa vositali kelishik deb ham yuritiladi.

Kelishik formasidagi otlarning boshqa so'zlar bilan aloqaga kirishi uch xil:

1. Kelishik ot bilan otini bog'laydi. Qaratqich kelishigi, qisman bosh kelishik ana shunday: Karimning kitobi, Paxta - texnika o'simligi. 2. Kelishik otini fe'lga bog'laydi. Bular tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklaridir: stolga (qara), stolni (ko'tar), stolda (yotibdi), stoldan (tushdi) kabi.

3. Kelishik formasidagi otlar, ot va fe'ldan tashqari, ba'zan sifat, ravish, son, olmosh, undovga ham bog'lanadi. Masalan: Quyosh oydan uzoq. Vatan xalqimizga aziz kabi.

Bosh kelishik avvalo otning gapda ega ekanligini ifodalaydigan formadir. Uning ko'rsatkichi -affiksi yo'q.

Ega vazifasidagi ot narsalik ma'nosini anglatadi va kim? nima? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi: Hasharchilar ishni oxirigacha etkazadilar.

O'zbek tilida bosh kelishikdagi ot yana bir necha sintaktik vazifani bajaradi:

1. Undalma bo'lib keladi: Tilimni qichitma, Umar! Necha marta oldingga kirdim, "Ho rais, chorvaga ahamiyat ber, ho rais ..." deb orqangdan ergashib yurdim (I.R.)

2. Atov gap bo'lib keladi: Bo'ron! Tezda gurkirar bo'ron!(M.G.) Bahor! Qushlar o'ynar osmonda. (Mirm.)

3. Izohlovchi bo'lib kelishi mumkin: Haydar cho'qqi kechmishini so'ylarkan,

Uning ohi tutunday ko'kka ustun... Haydar cho'qqi hozirini so'ylarkan, Qomatlari yigitday ko'kka ustun. (g' .G".)

4. Kesim bo'lib kelishi mumkin: Din ekspluatatsiya quroli.(A.Q.)

5. Bosh kelishik formasida takrorlangan holatda kelib, o'z leksik ma'nosidan tashqari, o'xshatish, miqdoriy ortiqlik va kuchaytirish kabi qo'shimcha ma'no otsenkalariga ega bo'ladi va gapda ko'pincha aniqlovchi, hol yoki kesim vazifasida keladi: Har yerda guruh-guruh odamlar... Har yerda dasta-dasta bayroqlar. (O.) Yulduzlar chaman-chaman yonadi (O.) ...Obodlik uchun shaharda hali ish tog'- tog' (O.) 6. Egalik qo'shimchasi olmagan boshqa ot oldida kelganda, qanday? qanaqa? so'roqlariga javob bo'lib, sifatlovchi vazifasida keladi: Oltin hovo, esnaydi bahor (O.) Oq, kalta batis ko'ylak Dilbarga yarasharkan.(O)

7. Ravish holi yoki payt holi bo'lib kelishi mumkin: Ariq yoqalab qator o'sgan daraxtlar qo'ynida shamol g'uvillar edi.(O.) Bunday qator so'zi ravish holidir.

Qaratqich kelishigi biror narsaning shu kelishikdagi otdan anglashilgan narsaga qarashli ekanini, xosligini ifodalaydi. Masalan: Tuyg'unning daftari, daraxtning ildizi kabi.

Qaratqich kelishigi adabiy tilda -ning affiksi bilan shakllanadi: kitob+ning kabi. Ba'zan poeziyada qaratqich kelishigi affiksi -n shaklida ham uchraydi: Bu Vatan – o'zbeklar xalqin tuprog'i, Muqaddas, daxlsiz, buni bilib qo'y. (G.G.)

Qaratqich kelishigidagi ot odatda egalik affiksi olgan boshqa bir ot bilan grammatik jihatdan bog'langan bo'ladi va uning aniqlovchisi hisoblanadi: kitobning muqovasi kabi.

Qaratqich kelishigi ma'no va shakl jihatdan ikki xil: 1) belgili qaratqich kelishigi, 2) belgisiz qaratqich kelishigi.

Kelishik affiksi -ning bilan shakllanib, real qarashlilik ifodalaydigan forma belgili qaratqich kelishigi deyiladi.

Belgili qaratqich kelishigi narsaning aniq, belgili narsaga qarashlilikini, xosligini ifodalaydi: jamoa xo'jaligining bog'i kabi. Bunday nutqdan ma'lum bo'lgan belgili bir jamoa xo'jaligiga qarashli bog' haqida gap boradi.

Qaratqich kelishigi affiksi tushib qolsa, belgisiz qaratqich kelishigi deyiladi. Belgisiz qaratqich kelishigi egalik affiksi olgan otdan anglashilgan narsaning qaratqich kelishigidagi ot anglatgan narsaga aloqador hodisa ekanligini, shuningdek, qaratqich kelishigidagi otning egalik affiksi olgan otga nisbatan belgi ekanligini ifodalaydi: vatan ishq, tong chog'i kabi.

Belgisiz qaratqich kelishigidagi ot o'zidan so'nggi ot bilan ma'no va grammatik jihatdan juda zich bog'langan bo'lib, ular orasiga boshqa so'z kiritish mumkin emas.

Qaratqich kelishigining belgili va belgisiz kelishi leksik va grammatik ma'nolarning talabiga ko'ra bo'ladi.

Quyidagicha leksik ma'nodagi so'zlar odatda belgili qaratqich kelishigida qo'llanadi: 1. Shaxs otlari (atoqli va turdosh otlar): Yoldoshning paltosi, komandirning buyrug'i kabi.

2. Butunning qismini anglatadigan otlar daraxtning shoxi, pechkaning og'zi, uyning derazasi kabi. 3. Egalik formasidagi otdan anglashilgan narsa bilan gentik aloqada bo'lgan

narsani anglatadigan ot: tog'aning jiyani, tovuqning jo'jasi, arslonning bolasi kabi. 4. Manbaa ma'nosidagi ot: talabaning fikri, maktab direktorining ma'ruzasi kabi.

Quyidagicha grammatik ma'nodagi so'zlar belgili qaratqich kelishigida qo'llanadi:

1. -lar affiksini olib, ko'plik ma'nosini ifodalaydigan ot (agar u belgi anglatmasa) yoki otlashgan so'zlar: mehnatkashlarning turmushi, kitoblarning o'rni, ilg'orlarning sarasi kabi.

2. Qaratqich kelishigidagi ot bilan egalik formasidagi ot orasida boshqa so'z kelganida: yozning eng issiq payti. Navoiy bu yerda shaharning mashhur kishilarini, olimlarini, xalq vakillarini qabul qildi.(O.)

3. Qaratish ma'nosini ta'kidlash lozim bo'lganda: kitobning varag'i (daftarning varagi emas!), daryoning suvi (ko'lining suvi emas!)

4. Otlashgan sifat, ravish yoki sifatdosh: dangasaning quyrug'i birtutam.(Maqol.)  
Maqtanganning to'yiga, kerilgannig uyiga bor.(Maqol.)

5. Egalik affiksi olgan so'z otlashgan sifat, ravish yoki sifatdosh bo'lganida: Ibrohimov tutning yaxshi - yaxshisini... ehtiyot bilan terib... (A.Q.) Daraxtning ko'pi yaxshi ko'rardi. Er yigitning uyalgani - uyalgan .(Maqol.)

Tubandagi o'rinlarda belgili qaratqich kelishigining affikssiz qo'llanishi maqbul emas:

1. Atoqli ot qaratqich bo'lib kelganda. Gulshan ko'zi tiniq samoda. (O.)

2. Qaratqich bo'lgan ot egalik affiksi olgan bo'lsa: Chaqnar ko'zlar qora otashi. (O.)

Quyidagicha leksik ma'nodagi so'zlar odatda belgisiz qaratqich kelishigida qo'llanadi:

1. Abstrakt otlar: ilm ahli, aql kuchi, dil orzusi, vijdon amri, ko'ngil xushi kabi. 2. Egalik formasidagi ot payt ma'nosini anglatganda: ko'klam payti, tush vaqti, tong chog'i kabi.

3. Boshqa narsaning belgisi sifatida qo'llangan ot: ipak qurti, vatan ishq, yer islohoti kabi.

Quyidagicha grammatik ma'nolardagi so'zlar belgisiz qaratqich kelishigida qo'llanadi:

1. Ega-kesim munosabati qaratqich-qaralmish munosabatiga aylantirilganida, fe'l harakat nomi yoki o'tgan zamon sifatdoshi formasida qo'llanib, egalik affiksini oladi. Bunday chog'da bilan (yoki uchun, kabi) ko'makchisi qo'llansa, harakatni bajaruvchini ifodalagan ot belgisiz qaratqich kelishigida bo'ladi: Hamma yig'ilishi bilan ishga kirishdik. Karima kelgani bilan masala hal bo'lmadi. Mashina kelgani uchun, hamma qo'zg'aldi. Rahima aytgani kabi, biz qishloqqa erta yetib bordik.

Sintaktik qayta bo'linish tufayli aslida gapning egasi bo'lgan egalik formasidagi ot kesim sostaviga qoshilib ketganida, aslida qaratqich bo'lgan ot gapning egasi bo'lib qoladi va belgisiz qaratqich kelishigi formasidan bosh kelishik formasiga siljiydi: Hamma bilishi kerak. Yurak sezmog'i lozim.

2. Qaratqich formalari bir-biriga tobe holda birin-ketin zanjir bo'lib kelsa ham, eng so'ngisidan boshqa ot (yoki otlar) belgisiz qaratqich formasida qo'llanadi: pedagogika instituti til va adabiyot fakulteti talabasi Ortiqovning yozma ishi kabi.

Tushum kelishigi shu kelishikdagi otdan anglashilgan narsa ish-harakatni o'ziga olganligini ifodalaydi. Bu kelishikdagi ot narsa ma'nosini anglatib, kimni?, nimani? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi va har vaqt o'timli fe'l bilan birikadi: Lolani chaqir, kitobni ol kabi.

Tushum kelishigi hozirgi adabiy tilda -ni affiksi bilan shakllanadi. Poeziyada ba'zan -n shaklida ham uchraydi. Biroq bunda -n affiksidan oldin egalik affiksi bo'lishi lozim: Ikkita chanoqning paxtasini olsang, Eng ozi bir g'altak chayron ip bo'lur. (G.G.)

Tushum kelishigidagi ot gapda faqat vositasiz to'ldiruvchi bo'lib keladi: Jamoa xo'jaligi yerlarini hozir traktor bilan haydab, traktor bilan ekamiz.

Tushum kelishigi ma'no va shakl jihatdan ikki xil: 1) belgili tushum kelishigi, 2) belgisiz tushum kelishigi. Bu jihatdan tushum kelishigi qaratqich kelishigiga o'xshaydi.

Kelishik affiksi -ni kelsa, belgili tushum kelishigi deyiladi. Tushum kelishigi affiksi tushib qolsa, belgisiz tushum kelishigi deb ataladi. Belgisiz tushum kelishigidagi ot harakat o'tgan ob'yektni (narsani) ham, harakat belgisini ham anglatadi. Masalan: Qizlar paxta terayotirlar. Bunda qizlar nima terayotirlar? Degan so'roqni ham, qizlar nima ish (yoki qanaqa ish) qilayotirlar? degan so'roqni ham berish mumkin.

Belgisiz tushum kelishigidagi ot fe'l-kesim bilan ma'no va grammatik jihatdan juda zich bog'langan bo'lib, ular orasiga boshqa so'z kiritib bo'lmaydi (shuning uchun bunday birikmalar ba'zan qo'shma fe'l darajasiga ham borib yetadi): Biz soat sakkizda choy ichdik,

Agar choy so'zidan so'ng boshqa so'z kiritilsa, choy so'zini belgili tushum kelishigida ishlatish lozim bo'ladi. Biz choyni soat sakkizda ichdik.

Sifat, sifatdosh va ravish otlashib vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajarganda, faqat belgili tushum kelishigida bo'ladi.

Jo'nalish kelishigi shu kelishikdagi otdan anglashilgan narsaning ish-harakatning yo'naltirilgan o'rin, vaqt, sabab ekanligini yoki ish-harakatning bajarilishida vosita ekanligini ifodalaydi.

Jo'nalish kelishigi -ga affiksi bilan shakllanadi: kitob -ga kabi. Negiz oxirida -k yoki -g tovushi bo'lsa, bu affiks -ka shaklida, q yoki g'tovushi bo'lsa, -qa shaklida qo'shiladi: kurak-kurakka, barg-barkka, qishloq-qishloqqa, tog'-to'g'qa kabi.

Folklorda, ba'zi shevalarda, eski adabiy tilda jo'nalish kelishigi affiksi -a shaklida ham uchraydi: Kun botir o'yladi: "Seni zindondan men tortib olganman ", -der;" betimga aytmaganda, ichida aytar..." (E.J.)

Jo'nalish kelishigidagi otlar tubandagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

1. Kimga? yoki nimaga? so'rog'iga javob bo'ladi va harakatning bajarilishida vosita bo'lgan narsani anglatib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi: Qari va kasal kishilarga har vaqt yordam berish kerak.

2. Qayerga? so'rog'iga javob bo'lib, harakatning bajarilish o'rnini ifodalaydi va gapda o'rin holi vazifasida keladi: Arslonqul o`z to`dasi turgan chodirga bordi.(O.)

3. Vaqt ma'nosini anglatadigan otlar qachon? qachonga? so'roqlariga javob bo'lib, harakatning bajarilish vaqtini ifodalaydi va gapda payt holi vazifasida keladi: Ekskursiya yozga qoldirildi.

To'ldiruvchi ot o'timli fe'l bilan bog'lansa, jo'nalish kelishigi o'rnida ba'zan tushum kelishigini ishlatish ham mumkin. Masalan: otga min -otni min, bolaga qara - bolani qara kabi.

O'rin-payt kelishigi shu kelishikdagi otdan anglashilgan narsaning ish- harakat uchun yo boshqa bir narsa uchun bo'lgan o'rin, vaqt ekanligini, yoki ish-harakatning bajarilishida vosita ekanligini ifodalaydi. O'rin-payt kelishigi -da affiksi bilan shakllanadi: maktabda kabi.

O'rin-payt kelishigidagi ot gapda tubandagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

1. Kimda? yoki nimada? so'rog'iga javob bo'lib, vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi. Bu yo'llarda loy kechib Gulshan, tuproq tashir aravachada. (O.)

2. Qayerda? so'rog'iga javob bo'lib, o'rin holi vazifasida keladi: Bostirmada Ziyodaxon supra yozib, un elab o'tirar edi. (A.Q.) 3. Qachon? So'rog'iga javob bo'lib, payt holi vazifasida keladi: Bolalik kunlarimda, Uyqusiz tunlarimda. Ko'p ertak eshitgandim, So`zlab berardi buvim. (H.O.)

4. Qayerda (dir)? nechada (dir)? yoki nimada? So'roqlaridan biriga javob bo'lib, narsa yoki hodisaning bo'lish o'rnini, yoshini, holatini ifodalaydi va gapda kesim vazifasida keladi: Dadam dalada. Turob yigirma yoshda. Katta hurmatda, yosh izzatda. Hamma ayib qoloqlikda. .

Chiqish kelishigi shu kelishikdagi otdan anglashilgan narsa ish-harakatning boshlanish, kelib chiqish, ajralish o'rni, manbai, vaqti, sababi ekanligini yoki ish-harakatning bajarilishida vosita ekanligini ifodalaydi. Chiqish kelishigi -dan affiksi bilan shakllanadi. Eski adabiy tilda bu affiks -din shaklida ham ishlatilgan:

Kishikim ilmu fandin boxabardur,

Xoloyiqqa baqadiru mo'tabardir.

(Furqat.)

Chiqish kelishigidagi ot gapda tubandagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

Kimdan? yoki nimadan? so'rog'iga javob bo'lib, vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi: o'n yettinchi yillar... Daryo tumanda. Shahar qo`zg`olondan nafas oladi. (A.U.) 2.Qayerdan? so'rog'iga javob bo'lib, harakatning boshlanish, davom etish o'rnini bildiradi va o'rin holi vazifasida keladi: Murodova "Olg'a" jamoa xo'jaligidan jamoa xo'jaligiga tomon jo'nab ketdi. (I.R.) Mana ular ko'rkam, serdaraxt shaharchasidan o'tib bormoqdalar. (S.Abduqahhor.) 3.Qachondan? so'rog'iga javob bo'lib, payt holi vazifasida keladi: ilk tongdan bulbul sayraydi! (LSidiqbekov.) 4.Nimaga? yoki nima uchun? so'rog'iga javob bo'lib, sabab holi vazifasida keladi. Shu vaqt birdan bulbul shodligidan sayrab yubordi. (T.T.)

5. Kimdan (dir)? yoki nimadan (dir)? kabi soʻroqlarga javob boʻlib, gapda kesim vazifasida keladi: Bu detallar kartondan. Ishoning, soʻzlarim yurakdan. (0.)

Oʻzbek tilida otlar boshqa soʻz turkumlariga nisbatan yangi soʻzlar hisobiga tez boyib turadigan kategoriyadir.

(Oʻzbek tilida ot: a) morfologik, b) sintaktik usullar bilan yasaladi.

Morfologik usul bilan ot yasash. Bu usulda soʻz negiziga maxsus ot yasovchi affiks qoʻshish bilan yasama ot hosil qilinadi.

Affiksasiya (affiks qoʻshish) yordami bilan yasalgan otlar tubandagi asosiy maʼno guruhlariga boʻlinadi: I Shaxs otlari.

2. Narsa, qurol otlari; oʻlchov birligi otlari. 3. Oʻrin va joy otlari. 4. Kasb-hunar otlari. 5. Abstrakt otlar.

Shaxs oti yasovchi affikslar asosan ot negizlariga qoʻshilib, quyidagicha shaxs otlarini yasaydi.

1. -chi affiksi "shugʻullanuvchi" maʼnosidagi ot yasaydi: a) negiz anglatgan narsa yoki ish bilan shugʻullanuvchi shaxs otini yasaydi: ovchi, tarbiyachi, gazetachi, ishchi, baliqchi, terimchi, suvchi, dutorchi kabi;

b) negiz anglatgan narsaga, tashkilotga, ishga mansub boʻlgan shaxsning otini yasaydi: yuz sentnerchi, aʻlochi, musobaqachi, ogʻmachi, jamoa xoʻjaligi kabi; v) negiz anglatgan feʼl-atvorga, xususiyatga ega boʻlgan shaxs otini yasaydi: yolgʻonchi, qiziqchi kabi.

Bu affiks baʼzan parranda va hashoratlarning nomini ham yasaydi: baliqchi (qush), ninachi kabi.

2. -dosh affiksi negiz anglatgan narsa, belgi tufayli boshqa shaxs bilan birga boʻlgan shaxs otini yasaydi:

a) yashash, ishlash, oʻqish oʻrni bir boʻladi: vatandosh, sifatdosh, kursdosh kabi;

b) yashash, ishlash payti bir boʻladi: asrdosh, zamondosh, tengdosh kabi;

v) ish - harakati, holati bir boʻladi: safdosh, koʻmakdosh, sirdosh, orqadosh kabi.

Bu affiks baʼzi bir ilmiy terminlarni yasashda ham ishtirok etadi: sifatdosh, ravishdosh kabi. 3. -kash affiksi "tortuvchi" maʼnosidagi ot yasaydi:

a) negiz anglatgan narsani yurguzuvchi shaxs otini yasaydi: tuyakash, aravakash;

b) negiz anglatgan ish yoki narsa bilan shugʻullanuvchi shaxs otini yasaydi: mehnatkash, suratlash kabi.

4. -bon affiksi negiz anglatgan narsani saqlovchi yoki shu narsaga qarovchi shaxs otini yasaydi: bogʻbon, darvozabon kabi.

5. -boz affiksi negiz anglatgan narsa bilan koʻp shugʻullanuvchi yoki shu narsani boquvchi, oʻynovchi, sevuvchi shaxs otini yasaydi: kaptarboz, dorboz, nayrangboz, bedanaboz kabi.

6. -paz affiksi negiz anglatgan ovqatni pishiruvchi shaxs otini yasaydi: oshpaz, somsapaz, kabobpaz kabi.

7. -dor affiksi negiz anglatgan narsaga ega bo'lgan shaxs otini yasaydi: chorvador, aybdor, bog'dor, mulkdor kabi.

-dor affiksi aslida sifat yasovchi bo'lgan. Shuning uchun hozir ham ba'zan bu affiks sifat yasaydi:... yag'rindor, kallaxum yigitcha (O.), vafodor (qiz), dongdor (yigit) kabi.

8. -shunos affiksi negiz anglatgan soha bilan shug'ullanuvchi shaxs otni yasaydi: tilshunos, sharqshunos kabi.

9. -xon affiksi negiz anglatgan narsani o'quvchi shaxs otini yasaydi: kitobxon, g'azalxon kabi.

10. -soz affiksi negiz anglatgan narsani tuzatuvchi, yaratuvchi shaxs otini yasaydi: soatsoz, stanoksoz, traktorsoz kabi.

11. -do'z affiksi negiz anglatgan kiyim turini tikuvchi shaxs otini yasaydi: do'ppido'z, etikdo'z, mahsido'z kabi.

12. -gar (kar) affiksi negiz anglatgan narsa bilan shug'ullanuvchi shaxs otini yasaydi: zargar, kimyogar, firibgar, miskar kabi.

Yuqorida sanalganlardan-kash, -bon, -boz, -paz, -dor, -shunos, -xon, -soz, -do'z, -gar (-kar) affikslari aslida tojikcha fe'l o'zaklari bo'lib, o'zbek tilida yasovchi affiksga aylangan.

Shaxs oti yasovchilar orasida -chi unumli affiks bo'lib, ko'pgina shaxs oti yasovchilar unga ma'nodoshdir. Masalan: ko'makchi - ko'makdosh, suratchi- suratlash, somsachi-somsapaz, chorvachi-chorvador, hizmatchi-hizmatkor, tilchi-tilshunos kabi.

Narsa, qurol, o'lchov birligi kabi otlarni yasovchi affikslar fe'l negizlariga qo'shilib, negizdan anglashilgan ish - harakatni bajarish uchun qo'llanadigan narsa, qurolning yoki harakat, holat natijasi bo'lgan narsaning otini yasaydi. Bu affikslar:

1. -k (-ik, -uk), -q (-iq, -uq) affiksi: a) oxirida unli tovush bo'lgan yumshoq negizga-k tarzida qo'shiladi: elak, kurak, to'shak, g'ildirak, tilak kabi;

b) oxirida undosh tovush bo'lgan yumshoq negizga -ik tarzida qo'shiladi: ko'rik, tilak kabi;

v) oxirida unli tovush bo'lgan qattiq negizga -q tarzida qo'shiladi: tara+q-taroq, so'ra+q-so'roq,

bodra+q-bodroq kabi; d) oxirida undosh tovush bo'lgan qattiq negizga -iq tarzida qo'shiladi:

to'siq, soliq, chopiq, qochiriq, chaqiriq, tortiq kabi; e) oxirida undosh tovush bo'lib, sostavida

lablangan tor u unlisi ishtirok etgan qattiq negizga -uq tarzida qo'shiladi: yutuq, uchuq kabi.

2. -oq affiksi: o'roq, qochoq, quchoq kabi.

3. -ki, -gi, -qi, -g'i (-g'u) affiksi yumshoq negizga: a) jarangli yoki sonor undoshdan so'ng-gi tarzida qo'shiladi: supurgi, kuydirgi, surgi, kulgi kabi; b) jarangsiz undoshdan so'ng -ki tarzida

qo'shiladi: tepki, turtki kabi; qattiq negizga: a) jarangli yoki sonor undoshdan so'ng -g'i tarzida

qo'shiladi: yoqilg'i, tomizg'i, chalg'i ( o'roq) kabi; b) jarangsiz undoshdan so'ng -qi tarzida qo'shiladi: chopqi, achitqi, tutatqi kabi.

4. -kich, -gich, -qich, -g'ich affiksi: a) unli yoki jarangli undoshdan so'ng yumshoq negizga gich: o'lchagich, suzgich kabi; b) jarangsiz undoshdan so'ng yumshoq negizga -kich tarzida qo'shiladi: ko'rsatkich kabi; v) unli yoki jarangli undoshdan so'ng qattiq negizga -g'ich qirg'ich, savag'ich, qashlagich kabi; g) jarangsiz undoshdan so'ng qattiq negizga-qich tarzida qoshiladi: qisqich, tutqich kabi.

5. -m, -im, -um affiksi: a) unidan so'ng -m tarzida qo'shiladi: toplam, o'ram, osham, chimdim kabi; b) undoshdan so'ng -im tarzida qo'shiladi: terim, bilim, kirim, chiqim kabi; v) negiz sostavida lablangan tor u unlisi bo'lsa, -um qo'shiladi: yutum, unum kabi.

6. -ma affiksi konkiret qurol, ovqat nomlarini, kasallik otlarini yasaydi: ugma, to'qima, suzma, qiyma, qatlama, isitma, bo'g'ma kabi (ba'zan esa abstrakt ot yasaydi: eslatma kabi).

7. -indi affiksi negizida anglashilgan harakat mahsuloti bo'lgan narsa otini yasaydi: yuvindi, chiqindi, qirindi kabi va boshqalar.

O'rin-joy oti yasavchi affikslar negizdan anglashilgan narsa mavjud bo'lgan, ekiladigan yoki yashaydigan o'rin-joy otini yasaydi. Bular: 1.-loq, -lov: toshloq, o'tloq, qumloq, yaylov kabi. 2.-zor: paxtazor, lolazor, olchazor kabi. 3.-iston: O'zbekiston, Tojikiston, Guliston kabi. Bunda abstrakt ot yasovchi affikslar, sifat, ravish, son, ot, olmosh, fe'l negizlariga, ba'zan modal so'zlarga qo'shilib, negiz ifodalagan tushuncha belgilaridan birini anglatuvchi abstrakt m ot yasaydi. Bu affikslar:

1. -lik (liq) affiksi: a) sifatga qo'shiladi: yaxshilik, go'zallik, suvsizlik, qizillik, mardlik kabi; b) ravishga qo'shiladi: tezlik, ko'plik kabi; v) songa qo'shiladi: birlik, uchlik, beshlik kabi; g) otga qo'shiladi: otalik, onalik, qarindoshlik kabi; d) ba'zi olmoshlarga qo'shiladi: o'zlik, manmanlik kabi; e) modal so'zga qo'shiadi: borliq kabi.

2. -chilik, -garchilik: pillachilik, paxtachilik, o'rtoqchilik, odamgarchilik, xafagarchilik, loygarchilik kabi.

3. -izm affiksi negiz anglatgan narsa, tushuncha bilan bog'langan ta'limot, ilmiy siyosiy oqimga mansublik, ilmiy va ijtimoiy hodisalar sistemasi kabi ma'nolardagi abstrakt otlarni yasaydi: materializm, darvinizm, naturalizm kabi.

4. -ch, -inch affiksi fe'l negizlariga qo'shilib, ruhiy holat, kayfiyat ma'nosini anglatadigan abstrakt ot yasaydi: ishonch, sevinch, sog'inch, qo'rqinch kabi. Sintaktik usul bilan ot yasash. Bu usulda so'z formalarini biron yo'sinda biriktirib, bir narsani anglatish uchun xizmat qiladigan yangi ot yasaladi. Sintaktik usul bilan qo'shma ot va juft ot hosil qilinadi.

Qo'shma ot ikki yoki undan ortiq so'z formalarining aslida ma'no va grammatik jihatdan bir-biriga tobelanish yo'li bilan birikib, hozir bu sintaktik aloqa kuchsizlanishi natijasida bir narsani anglatish uchun xizmat qiladigan yangi so'zdir. Qo'shma ot bir bor urg'u bilan aytiladi.

Qo'shma ot qismlari aslida tubandagi Grammatik (sintaktik) munosabatlar asosida birikkan bo'ladi:

1. Aniqlovchi bilan aniqlanmish: a) belbog' kuraktish, oshqozon, bilaguzuk; b) so'z boshi, qushtili (ovqat), mingboshi (o'sinnlik); v) oqsoqol, oqqush, qizilishton, Yangiyo'l, Qorasuv; g) uchburchak, besh yillik, yeti yillik kabi. 2. Ega bilan kesim: Soy keldi, Qor yog'di kabi. 3. To'ldiruvchi bilan kesim: muz yorar, otboqar, tovonteshar kabi. 4. Hol bilan kesim: a) bosvoldi, iskabtopar, olibsotar, ishlab chiqarish; b) beshotar kabi.

5. Kesim (gap) va undalma: urto'qmoq, yoriltosh kabi. Yuqoridagilardan tashqari, o'zbek tilida rus, tojik va boshqa tillardan kirgan parovoz, elektrovoz, aeroport, obdasta, gulsapsar kabi etimologik jihatdan qo'shma bo'lgan otlar ham ko'p. Biroq ularning qo'shmaligi o'zbek tilida anglashilib turmaydi. Shuning uchun bunday otlar sodda ot hisoblanaveradi.

Qisqartma otlar. Nutqda ixchamlikka erishish maqsadida turg'un so'z birikmalarini biron darajada qisqartirish ham mavjud bular qisqartma otlar deb yuritiladi. Masalan: Fanlar akademiyasi -FA, Andijon davlat universiteti – ADU kabi.

Qisqartma otlarning ba'zilar rus tilida yasali, shu holda o'zbek tiliga kirgan (GES, TES kabi) ba'zilar esa o'zbek tilida yasalgan (BMT, XXR, BAR kabi).

Qisqartma otlar shunday tuziladi:

1. Turg'un birikmadagi so'zlarning birinchi tovushlari olinadi.

Bunda: a) faqat undosh tovushlardagina iborat bo'lgan qisqartma otlar harflarning alfavitdagi nomi bilan talaffuz qilinadi: XX -xa -xa, GDR -ge -de -er, BMT -be -em -te, MK -em -ka kabi; b) tarkibida unli tovush bo'lgan qisqartma otlarda esa harflarning nomi emas, balki bu harflar ko'rsatgan tovushlarning o'zi talaffuz qilinadi: GES, TES, NEP, ZAGS kabi. Bu keng so'zlar rus tilidan tayyor holda kirgan bo'lib, ularning qisqartma ot ekanligi yozuvdagina bilinib turadi.

2. Birinchi so'zning bosh qismi, keyingi so'zlarning esa birinchi tovushlari olinadi:

ToshMI -Toshkent meditsina instituti kabi.

3. So'zlarning bosh qismlaridan tuziladi: tuman xokimi, Supper Market kabi.

4 Bosh qism va butun so'zdan tuziladi: partbilet, O'zkitob, O'zpoligrafkombinat kabi.

Juft ot. Bosh kelishikdagi ikki so'zning grammatik teng bog'lanishidan yasalgan va bir umumiy, jamlovchi ma'noni anglatadigan ot juft ot deyiladi.

Juft ot qismlarining har biri o'z urg'usiga ega bo'ladi, grammatik jihatdan teng bo'ladi, affikslar faqat keyingi komponentga qo'shiladi: osh-nonim, osh-nonning, aka-ukalar, aka-ukaga kabi.

Juft otlar quyidagicha yasaladi:

I. Har ikki qism mustaqil ma'noli so'z bo'lib, juft so'zning ma'nosi o'sha qismlar ma'nosining yig'indisidan kelib chiqadi. Bunday juft so'zning qismlari o'zaro ikki xil

bog'lanadi: a) -u, -yu bog'lovchisi yordami bilan: tog'u tosh, olmayu o'rik kabi; b) bog'lovchilarsiz olma-o'rik, ota-ona kabi.

Bunda qismlar ma'no jihatdan bir-biriga shunday munosabatda bo'lishi mumkin: 1. Qismlar o'zaro ma'nodosh (sinonim): kuch-quvvat, aft-bashara kabi.

2. Qismlar qarama-qarshi ma'noli (antonim) bo'lishi mumkin: yer-ko'k, er-xotin, o'g'il-qiz kabi.

3. O'zaro ma'nodosh bo'lmasa ham, bir umumiy tushunchaning qismlari bo'lgan so'zlardan yoki yaqin ma'noli so'zlardan bo'lishi mumkin: tog'-tosh, qozon-tavoq, qo'y-echki, sigir-buzoq, sabzi-piyoz, gap-so'z kabilar.

II. Ba'zi juft otning komponentgina (ko'pincha birinchisi) mustaqil ishlatiladi.

Masalan: kiyim-kechak, qand-qurs, bozor-o'char, temir-tersak kabi.

Bunda birinchi qism anglatgan narsa va shunga o'xshagan narsalar tushuniladi.

III. Har ikki qism mustaqil ma'noli so'z bo'lmasligi mumkin: dali-g'uli, g'ala-g'ovur kabi. Bunda ifodalanayotgan narsa yoki tushunchaga nisbatan salbiy munosabat ham anglashiladi. Takrorlangan otlar ham tuzilish jihatdan juft otlarga kiradi, ammo bu- yangi ot yasash emas, balki modal forma yasashdir. Vaqt o'tishi bilan ot bolmagan bazi so'zlar, so'z formalri nutqdan otlashgan holda ko'p ishlatilishi natijasida otga ko'chadi. Bunday otga ko'chgan so'z tub bo'lishi ham, yasama bo'lishi ham mumkin. Masalan: oshna, usta so'zlari aslida sifat, ammo ular O'rtoq, master ma'nolarini ham anglatadi.

Ba'zi sifatlar ham ot, ham sifat kabi ishlatiladi. Masalan: qahramon, kambag'al, boy, asir, kasal, dangasa, tariq, qashqa kabi.

Sifatdosh, harakat nomi formalarida bunday hodisa ayniqsa tez-tez uchraydi. Masalan: o'quvchi, yozuvchi, to'quvchi, saylovchi, o'tmish, turmush, aniqlanmish kabilar aslida fe'lning hozirgi zamon va o'tgan zamon sifatdosh formasi, o'qish, otish, yurish, kirish, chiqish, burilish, yig'ilish, qurilish, saylov, tergov kabilar aslida fe'lning harakat nomi formasidir. Ammo ular shu formalarida affikslari bilan birga otga ham ko'chgandir.

Otga ko'chgan sifat yoki fe'lning ma'nosi aniqlashadi, torayadi. Garammatik jihatdan ba'zi otlarga xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'ladi.

Otlarda so'z o'zgarishi va so'z yasalishidan tashqari, modal forma yasash hodisasi ham mavjud.

Otlarning leksik ma'nosiga kichraytish, erkalash, hurmat, kuchaytirish, gumon, noaniqlik singari modal ma'no qo'shilishi muvofiq bo'lgan shakl hosil qilish modal forma yasash deyadi

Otlarda modal forma ikki usul bilan-morfalogik usul va takrorlash usuli bilan yasaladi.

Morfologik usul bilan otlarning kichraytirish-erkalash formalari yasaladi. Ba'zi yasovchilari tubandagilar:

1) -cha: o'ycha, kitobcha, yigitcha, qizcha kabi.

- 2) -chak, -choq: kelinchak, qo'zichoq, moychoq kabi.
- 3) -loq, -aloq: bo'taloq, toyloq, qizaloq kabi.
- 4) -gina (-kina, -qina): bolagina, bilakkina, o'rtoqqina kabi

### **1.3. ONA TILIDAN NO'ANAVIY DARS USULLARINI QO'LLASH ORQALI O'QUVCHILARNING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISH**

Ona tili o'qitishni davr talablari darajasiga ko'tarish, avvalo, ta'lim mazmunini takomillashtirishdan boshlanadi. Ona tili darslarining mazmuni garchi davlat o'quv dasturlari va maktab darsliklarida o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, ammo uni tanlash va undan foydalanishda o'qituvchining roli benihoya katta.

Bu paragrafda ona tili darslari mazmunini takomillashtirish, uni o'quvchilarning bilish faolligini oshiruvchi asosiy omilga aylantirishning ayrim yo'l-yo'riqlari haqida fikr yuritamiz.

Ta'limda o'quv materialini o'quvchilarning o'rganishlari va o'zlashtirishlari uchun metodik jihatidan ishlangan tajribaning bir qismi hisoblanadi.

O'qituvchilar ish tajribasida bu tushuncha turlicha talqin qilinadi. Ayrim o'qituvchilar o'quv dasturida ko'zda tutilgan va darslikda berilgan materialni o'quv materialini deb tushunishsa, ayrimlari uni kengroq ma'noda -o'quv dasturi va darslikda berilgan hamda o'qituvchi tomonidan qo'shimcha tanlangan materialni o'quv materialini deb tushunishadi. Bizningcha, keyingi guruhdagi o'qituvchilarning fikri haqiqatga yaqinroq, chunki darslik materialini dars materialining asosini tashkil qilsa-da, ammo uni to'raligicha belgilab beraolmaydi. Dars materialini darslik materialidan tashqari turli xarakterdagi qo'shimcha materialni ham qamrab oladi. Demak, o'quv materialini darslik materialiga nisbatan keng tushuncha. O'quv materialini darsda o'rganilishi nazarda tutilgan va o'quvchilarning, o'zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar sistemasi bo'lib sanaladi.

Ona tili darslarida o'quvchilar faolligini oshirish ko'p jihatdan til materialini tanlash va undan foydalanishga bog'liq.

Hozirgi davrda ta'limning mazmuni oldiga qo'yilgan talablar tobora oshib borayotgan bir sharoitda til materiallarini takomillashtirish, uning ta'sirchanligini oshirish faqat darslik materialini bilan cheklanib qolmay, balki barcha imkoniyatlarni to'la ishga solish, uni o'quvchilarning aktivligini qo'zg'atuvchi muhim omilga aylantirish eng asosiy vazifa bo'lib sanaladi.

Til materiallariga darslikda berilgan nazariy xarakterdagi mashqlar, savol va topshiriqlardan tashqari o'qituvchi tomonidan tuzilgan turli o'quv masalalari, Grammatik o'yin topshiriqlar, topishmoqlar, ko'rsatmali materiallar, magnit lentasi yoki kompyuter disketiga yozib olingan materiallarni ham kiritish mumkin.

Til materiallarini boyitish va ular asosida noan'anaviy dars usullarini qo'llash o'quvchilarning ona tili va uni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Lingvistik materialni oson va ongli o'zlashtirishga yordam beradi.

Ona tili darslarida o'quvchilar ko'pincha har kuni bir xil dars jarayonlarini ko'radilar. Ayniqsa, darslarda bajariladigan grammatik tahlil, qoida va ta'riflar ustida ishlash, berilgan

mashqlar shartiga ko'ra faoliyat ko'rsatish har bir darsda takrorlanaverishi o'quvchilarning zerikishiga olib keladi. Shuning uchun har bir dars o'qituvchi tanionidan nazariy ma'lumotning mazmun va mohiyatiga putur yetkazmagan holda turli noan'anaviy metod va usullar yordamida o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

80-yillarga kelib respublika markaziy jurnallarda, shuningdek, metodist va nazariyotchi olimlarning ilmiy to'plamlarida faollik, faollik tamoyillari, faollikni oshirish kabi masalalar keng yoritila boshladi. Professor A. G'ulomovning "Ona tili darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini aktivlashtirish" (1987) qo'llanmasi nashrdan chiqdi. 90-yillarda metodikaning bu dolzarb masalasini chuqurroq tahlil qilish va yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqishga ishlangan A.G'ulomovning "Ona tili darslarida aktivlik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari" (1992), doktorlik, T. G'aniyevning "Ona tilidan mashq bajarish jarayonida o'quvchining bilish faolligini oshirish" (1992) nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi.

A.G'ulomov o'quvchining bilish faolligini oshirish masalasini ta'lim mazmunidan kelib chiqib, talqin qilsa, T. G'aniyev dars jarayonida grammatik mashqlardan o'rinli va muayyan tartibda foydalanish faollikni oshirishning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi, o'zbek maktablari uchun yaratiladigan ona tili darsliklariga nazariy-uslubiy jihatdan mukammal mashqlar sistemasini tavsiya qiladi.

Mualliflar faollik (aktivlik)ni uch bosqichdan iborat deb qayd qiladilar. Birinchi bosqich qayta xotiralash faolligi bo'lib, bunda o'quvchi berilgan topshiriqni qayta xotiralash asosida bajaradi. Masalan, ko'chirma gaplarda, undalmali gaplarda yoki gapning ajratilgan bo'laklarda tinish belgilarining ishlatilishiga doir topshiriqlar, grammatik mashqlar faqat qayta xotiralash asosida bajariladi.

Qayta xotiralash faolligi o'quvchining egallagan bilimlarini qayta esga oladigan, uni xotirada tiklaydigan hamda o'qituvchining bevosita rahbarligi ostida yoki mashqda berilgan namuna yordamida faoliyat ko'rsatadigan jarayondir.

Faollikning ikkinchi bosqichi interpretatsion (qisman ijodiylik- faollik bo'lib, uning tarkibida ma'lum darajada izlanish, ijodiy fikrlash elementlari mavjud. Faollikning bu darajasida o'quvchi tilning qonun-qoidalari o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlar haqida fikrlaydi; egallangan bilimlarni ma'lum darajada o'zgartirilgan holatda qo'llashga intiladi. Masalan, 5-sinfda "Ayrim undosh tovushlarning yozuvda ifodalanishi" mavzusini o'tayotganda o'quvchilar diqqatini kitob, hisob, maktab, tartib kabi so'zlarning oxirida jarangli undoshi yozishga qaratmay balki bu so'zlarni aytirish orqali talaffuz bilan yozuv o'rtasidagi farqli aniqlashni talab qilinadi. O'quvchilarning fikrlashiga erishish orqali ularni yuqoridagi so'zlar oxirida jarangli -b undoshi o'rniga uning jarangsiz jufti -p talaffuz qilinishi, lekin aytilishidan qat'i nazar yozuvda -p undoshi emas, b undoshi yozish kerak degan xulosaga olib kelinadi. Yoki shu mavzu doirasida

berilgan (kito b\p, makta b\p, daroma d\t, muro d\t) artinativ mashqni bajarish davomida ham shunday xulosa chiqariladi.

Keyingi yillarda ona tilidan yozilgan va yozilayotgan darsliklarda ham interpretasion (qisman izlanuvchanlik) faollikni ta'minlash maqsadida anchagina o'quv topshiriqlari va grammatik mashqlar berilgan.

"Faollikning bu bosqichida o'quvchidagi mustaqillik qayta xotiralash jarayonidagi ergashishga asoslangan mustaqillikka nisbatan yuqori bo'ladi va u oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun qisman izlanishga, uchinchi darajadagi faoliyatga nisbatan kuchliroq faoliyat ko'rsatishga majbur bo'ladi"<sup>1</sup>

Faollikning navbatdagi uchinchi bosqichi ijodiy faollik hisoblanad. Bu bosqichda o'quvchi nafaqat til materiallarining ichki bog'lanishlari, o'ziga xos xususiyatlari, o'xshash va farqli tomonlari haqida fikr yuritadi, balki qo'yilgan ijodiy xarakterdagi o'quv topshirig'ini bajarishning qulay usullarini izlab ko'radi. Ijodiy faollik shu bilan xarakterliki, o'quvchi ona tilidan egallangan bilimlarini yangi vaziyatda qo'llab, o'ziga noma'lum bo'lgan bilimlarni o'rganadi. Faollikning bu bosqichida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi yuqori darajada bo'ladi, ko'langan maqsadga erishish uchun qafiylik ko'satadi. Qisman izlanish xarakteridagi faol to'la ijodiy xarakterga ega bo'ladi. Faolning uchinchi bosqichida egallanadigan bilimlar o'quvchining puxta bilimlariga aylanib, bu bilimlarni u istagan sharoitda bema'lol qo'llay oladi.

Rasmga qarab bayon yozish, talab qilingan mavzu asosida insho yoki hikoya yozish, berilgan ergash gapga mos bosh gap tuzish va ularda ma'lum lingvistik qoidalarga amal qilish o'quvchining ijodiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Demak, o'quvchining faollik darajasi o'quv topshirig'ini o'tilgan mavzularni qayta xotiralash asosida bajarish, mustaqil fikr lay bilishi, til qonun-qoidalariga mos ijodiy misollar tuza olishi va o'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonini faollashtirish maqsadida yaratilgan shart-sharoit, tanlangan vositalarning natijasi bilan o'lchanadi.

Biz ishimiz yuzasidan ko'pgina tajribali va tajribasiz o'qituvchilarning darslarini kuzatishga muvaffaq bo'ldik. Kuzatishlar davomida shu narsa aniqlandiki, ko'pchilik o'qituvchilar har bir darsning forma va metodlarini har xil tashkil qilib, turli noan'anaviy dars usullarini qo'llaydilar. Natijada berilishi zarur bo'lgan lingvistik ma'lumotni o'quvchilarga singdirishga erishadilar.

Biz kuzatishlar davomida ko'rgan va o'z tajriba darslarimizda qo'llagan ana shunday noan'anaviy dars usullarining ayrimlari xususida to'xtalmoqchimiz.

---

<sup>1</sup> Гуломов А. "Она тили ўқитишда активлик принципи амалга оширишнинг назарий асослари". Тошкент, 1989 йил.

## **II BOB. “OT” MAVZUSINI O`RGATISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI O`QUVCHILARNING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISH**

### **2.1. “OT” MAVZUSINI O`RGATISH METODIKASI**

“Ot” mavzusini o`rganish sistemasi maqsadga yo`naltirilgan jarayon bo`lib, bunda shu so`z turkumining umumlashtirilgan ma`nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog`liqlikda o`rganiladi, shuningdek otdan nutqda to`g`ri foydalanish va to`g`ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi.

Til hodisasi sifatida otni xususiyatlari, uni o`rganish vazifalari, o`quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularning o`rganish izchilligi belgilangan.

Boshlang`ich sinflarda otni o`rganish vazifalari: 1) “ot” haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish; 2) kim? so`rog`iga javob bo`lgan (shaxs bildirgan ) otlardan nima? so`rog`iga javob bo`lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko`nikmasini hosil qilish; 3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo`yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko`nikmasini shakllantirish; 4) otlarda son (otning birlik va ko`plikda qo`llanilishi) bilan tanishtirish; 5) otlarni egalik qo`shimchalari bilan to`g`ri qo`llash ko`nikmasini shakllantirish; 6) otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo`shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish; 7) o`quvchilar lug`atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o`rinli foydalanish malakasini o`stirish; 8) so`zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish hisoblanadi.

Bu vazifalarning har biri alohida emas, balki bir-biri bilan o`zaro bog`liq holda hal etiladi. Shu bilan birga, “Ot” mavzusini o`rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo`lgan bir vazifani hal qilishga ko`proq ahamiyat beriladi. Masalan, I-II sinflarda so`z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so`roqlari, birlik va ko`plikda qo`llanishi)ni o`zlashtirishga, III sinfda otning egalik qo`shimchalari bilan qo`llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo`shimchalarining yozilishini o`rganishga e`tibor beriladi. O`quvchilarning nutqi va tafakkurini o`stirish vazifasi esa mavzuni o`rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialning o`rganishda orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o`quvchilar lug`atini boyitishga, bog`lanishli nutuq malakalari va fikrlari, qobilyatlarini o`stirishga qaratiladi.

So`z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma`nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiy leksik ma`nosi narsani ifodalash hisoblanadi.

Otni o`rgatishga tayyorlov bosqichi savod o`rgatish davriga to`g`ri keladi. Bu bosqichda o`quvchilar narsalarni va ularning nomi bo`lgan so`zlarni farqlashga o`rganadilar, so`zning leksik ma`nosi (har bir so`z ma`no bildirishi)ga e`tibor oshiriladi, ma`nolarni hisobga olgan holda so`zlar (qushlar, meva va sabzavotlar kiyimlar va hokazolarni bildirgan otlar)ni gruppalash ko`nikmasi shakllantiriladi. So`zlarni leksik ma`nosi asosida gruppalash mashqlari otlarni taqqoslash, o`xshash tomonlarini aniqlash, absrtaklashtirish ko`nikmasini o`stiradi. Shunga qaramay, grammatik tushunchani shakllantirish uchun o`quvchilar so`zining konkret ma`nosini yetarli bilmaydilar, so`zning leksik ma`nosini bilish bilan birgalikda uning grammatik belgilarini ham o`zlashtirish zarur.

Keyingi bosqichda otning leksik ma`nolari va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi (kim? yoki nima? so`rog`iga javob bo`lishi, narsa bildirishi tushuniladi). O`quvchilar kim? so`rog`iga javob bo`lgan so`zlarni nima so`rog`iga javob bo`lgan otlardan farqlashga o`rganadilar. Bu bosqichda ular so`zlarni so`roq berish bilan farqlashni bilib oladilar, bolalarda mavhum grammatik tafakkur o`sa boradi. Bolalarda ko`pgina atoqli otlarni bosh harf bilan yozish ko`nikmasi shakllana boradi.

II- sinfda otlarning leksik ma`nosi, atoqli va turdosh otlar (terminsiz) haqidagi bilim chuqurlashtiriladi va sistemalashtiriladi; bolalar otlarda son bilan tanishtiriladi.

“Ot” tushunchasini shakllantirish uchun shu so`z turkumiga kiradigan otlarni asosiy leksik gruppalarga ajratish, barcha otlarga xos bo`lgan belgilarni ko`rsatish, ularning nutqimizdagi rolini ochish muhim ahamiyatga ega.

## **2.2. OTLARNING BIRLIK VA KO'PLIKDA QO'LLANISHINI O'RGATISH**

II sinfda “Otlarda son” mavzusi, ya`ni otlarning birlik va ko`plikda qo`llanishi ustida ishlash jarayonida o`quvchilarda; 1) birlik va ko`plikda qo`llangan otlarni ma`nosi va qo`shimcha orqali farqlash, 2) birlikdagi otdan ko`plik sondagi ot va, aksincha, ko`plikdagi otdan birlik sondagi ot hosil qilish, 3) gapda so`zlarning bog`lanishi hisobga olgan holda, otlardan nutqda to`g`ri foydalana olish ko`nikmalari shakllantiriladi.

Otlarning birlik va ko`plikda qo`llanishi taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi. Buning uchun bir narsani va shunday bir necha narsani bildirgan otlar taqqoslanadi: daftar-daftarlar, qalam-qalamlar, nok-noklar kabi. Suhbat asosida daftar so`zi nechta (bitta) narsani va daftarlar so`zi nechta (ikki va undan ortiq) narsani bildirishi aniqlanadi. (Boshqa so`zlar bilan ham shunday ishlanadi.) Oddiygina xulosa chiqariladi va umumlashtiriladi: agar otlar bir narsani bildirsa, ko`plikda qo`llanadi, agar ikki va undan ortiq narsani bildirsa, ko`plikda qo`llanadi. Ko`plikdagi otni yasash uchun birlikdagi otga –lar qo`shimchasi qo`shiladi. Birlikdagi otlar kim? yoki nima? so`rog`iga, ko`plikdagi otlar esa kimlar? yoki nimalar? so`rog`iga javob bo`ladi.

Bu sinf o`quvchilariga faqat birlikda qo`llanadigan otlar, birlik shaklida qo`llangan armiya, qo`shin, xalq kabi otlar ko`plik ma`nosini bildirishi, bunday otlarga ko`plik qo`shimchasi qo`shilganda anglatadigan ma`nosi maxsus tushuntirilmaydi. Agar o`quvchilar bu haqda savol bersalar, soddada shaklda tushuntirish mumkin.

Otlarning birlik va ko`plikda qo`llanishini kuzatish aslida so`z formasi ustida ishlashning boshlang`ich bosqichi hisoblanadi. Bunda o`quvchilar otlarni ko`p-lik qo`shimchasi bilan o`zgartirish, ya`ni otga forma yasovchi qo`shimcha qo`shish bilan so`zning leksik ma`nosi o`zgarishiga ishonch hosil qiladilar.

### **2.3. OTLARNING EGALIK QO`SHIMCHALARI BILAN QO`LLANISHINI O`RGATISH**

Bu mavzu boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun murakkab hisoblanadi, chunki bu mavzu o`rganilgunga qadar, bolalar “shaxs” tushunchasi bilan hali tanishtirilmagan, kishilik olmoshlari hali o`rganilmagan bo`ladilar. O`quvchilarga egalik qo`shimchasi narsa birlik va ko`plikdagi uch shaxsdan biriga taalluqli ekanini bildirishni tushuntirish qiyin. Shularni hisobga olib, o`quvchilarni otlarda egalik qo`shimchalari bilan tanishtirishda o`qituvchi ishini sarlavhadagi “egalik ” so`zining leksik ma`nosini tushuntirishdan boshlashi maqsadga muvofiq: egalik ega bo`lish, qarashlilik, tegishlilik, oidlik ma`nolarini bildiradi, demak, egalik qo`shimchasi deganda biror narsaga ega bo`lishini, shuni narsa tegishli, shu narsaning egasi ekanini bildiradigan qo`shimchalar tushuniladi. Otlar egalik qo`shimchalari bilan qo`llanadi. Otga qo`shilgan egalik qo`shimchasi shu ot ifodalagan narsaning kimgadir qarashli ekanini, shu narsaning egasi ekanini bildiradi. Misollarni kuzataylik: Kecha o`qigan kitobim juda qiziqarli ekan. Sening kitobing ham qiziqarlimi? Ra`noning kitobi ham qiziqarli edi.

Kitobim, kitobing, kitobi so`zlari so`z tarkibiga ko`ra, tahlil qilinadi va o`quvchilar kitob-o`zak, - im, -ing, -i qo`shimcha ekanini aniqlaydilar. O`quvchi kitob va kitobim so`zlarini taqqoslashni, –im qo`shimchasining ma`nosi haqida o`ylab ko`rishni topshiradi, muammoli vaziyat yaratadi; bolalar qo`shimchaning ma`nosi haqida fikr yuritadilar, ammo kitobim so`zining ma`nosiga (mening kitobim – kitob meniki) tushunchalari ham, fikrlarini shakllantirib aytib beraolmaydilar. O`qituvchi qisqa tushuntiradi. Tilda uchta shaxs mavjud: so`zlovchi yoki I shaxs, tinglovchi yoki II shaxs, o`zga yoki III shaxs. Hozir men sizga so`zlayapman, tushuntiryapman, demak, men – so`zlovchi, hozir siz meni ( tushuntirilayotgan mavzuni) tinglayapsiz, demak, siz (Sen) tinglovchi, hozir tinglashga qatnashmayotganlar ham bor, u (ular) – o`zga hisoblanadi. Siz otlar bilan va ko`plik sonda qo`llanishini bilasiz. Ma`lumki, biror narsa bir shaxsga yoki ikki va undan ortiq shaxsga tegishli bo`lishi mumkin. Mana shu ma`nolarni, ya`ni biror narsaning birlik yoki ko`plikdagi uch shaxsdan biriga qarashli ekanini otga qo`shilgan egalik qo`shimchalari bildiradi . Masalan, kitobim so`ziga qo`shilgan, siz aniqlagan –im qo`shimchasi kitobning bir shaxsga taalluqli ekanini, ya`ni kitobning egasi birinchi shaxs ekanini bildiradi. (-ing, -i qo`shimchalari ham shunday tushuntiriladi.) Kitobimiz so`zidagi – imiz qo`shimchasi kitob so`zlovchi shaxsga, shu bilan birga ko`p shaxsga (ko`p so`zlovchiga) tegishli ekanini bildiradi. (-ingiz, -i qo`shimchalari ham shunday tushuntiriladi.) Qisqa xulosa chiqariladi: otlarga qo`shilgan mana shunday qo`shimchalar egalik qo`shimchalari deyiladi. Egalik qo`shimchalari tegishlilik egalik ma`nosini bildiradi.

Egalik qo`shimchalari otlarga ikki variantda qo`shiladi. Akam va kitobim, Akang va kitobing, Akasi va kitobi kabi oxiri unli va undosh tovush bilan tugatilgan otlar so`z tarkibiga

ko'ra tahlil qilinadi, qo'shimchalar taqqoslanadi, suhbat asosida xulosa chiqariladi: oxiri unli tovush bilan tugagan otlarga – m, - ng,- si, -miz, -ngiz,-si egalik qo'shimchalari, oxiri undosh tovushlar bilan tugagan otlarga –im, -ingiz,-i,-imiz,-ingiz, -i egalik qo'shimchalari qo'shiladi. Shundan so'ng qo'uvchilar "O'zbek tili" darsligidagi qoidani o'qiydilar, jadvalni tahlil qiladilar.

O'quvchilarga egalik qo'shimchalari haqidagi ko'nikmani shakllantirish uchun, tekstdan egalik qo'shimchasi bilan qo'llangan otni topish, uni tarkibiga ko'ra tahlil qilib, egalik qo'shimchasining shaxs- sonini aniqlash; tekstda berilgan otga tushuntirib qoldirilgan egalik qo'shimchasini qo'shish, narsa qaysi shaxs yoki shaxslarga qarashli ekanini aytish kabi mashqlardan foydalaniladi.

Egalik qo'shimchasi ustida ishlash bu bilan tugamaydi. Otlarning kelishiklar bilan turlanishini o'rganish jarayonida egalik qo'shimchasi bilan qo'llangan ot qaratqich kelishigida kelgan boshqa ot bilan (kitobning muqovasi, Raximning kitobi), kishilik olmoshlarning kelishiklar bilan turlanishini o'rganish jarayonida esa egalik qo'shimchasi bilan kelgan ot qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshi bilan bog'lanib, so'z birikmasi hosil qilishi haqida bilim beradilar.

#### ***2.4. OTLARNING KELISHIK QO'SHIMCHALARI BILAN TURLANISHINI O'RGATISH***

Kelishiklar sintaktik kategoriya hisoblanadi. Kelishik otlarning gapda boshqa so'zlar bilan munosabatini ifodalaydi. Demak, kelishiklarni o'rgatishda o'quvchilarning gapda so'zlarning bog'lanishini bilishlari nazarda tutiladi. Kelishiklar ustida ishlashni o'quvchilar gapda ma'no va gramatik tomondan bog'langan so'zlarni (so'z birikmalarini) ajratishga o'rganganlaridan so'ng boshlanadi. Kelishiklar ustida ishlash gapda so'zlarning bog'lanishi ustida ishlash hamdir. Kelishiklarni bilish uchun o'quvchi ot gapda qaysi so'z bilan bog'langanini aniq bilishi kerak. Ot gapda boshqa so'z bilan bog'langanda qo'shimchalar bilan o'zgarishi ancha oldindan kuzatib boriladi. Aslida o'quvchilar 1-sinfdayoq so'z formalarining o'zgarishi bilan amaliy tanishadilar, ammo ular so'z formasi nimaligini hali bilmaydilar. Bolalar keyingi sinfda forma yasovchi (so'z o'zgartuvchi) qo'shimchalar bilan tanishadilar, bu qo'shimchalar gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishini tushinadilar.

3-sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik formalaridan ongli foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozishga o'rgatish hisoblanadi.

Bu sinfda ot quyidagi izchillikda o'rganiladi: 1) otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida tushuncha berish; 2) ko'plikdagi otlarning turlanishini o'rgatish; 3) har bir kelishikning

xususiyatlarini alohida o'rganish va u bilan bog'liq holda kelishik qo'shimchalarning yozilishi haqida ko'nikma hosil qilish.

Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi –turlanish haqida tushuncha berish bilan o'quvchilarga kelishik qo'shimchalari gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishi, o'zbek tilidagi olti kelishik, ularning nomi, so'roqlari, qo'shimchalari va joylanish tartibi tushuntiriladi.

O'quvchilar turlanish bilan, kelishikning mohiyatidan kelib chiqib, gapni tahlil qilish jarayonida tanishtiriladi, gapning asosi (ega va kesim) va so'z birikmalari ajratiladi. Ular gapda bir otning boshqa har xil so'zlar bilan forma yasovchi qo'shimchalar (-ning, -ni, -ga, -da,-dan) yordamida bog'lanishini kuzatadilar, bu qo'shimchalar kelishik qo'shimchalari ekanini, otlarning kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi turlanish deyilishini bilib oladilar. Bolalarga kelishiklarning joylashish tartibi, so'roqlari va boshqa kelishikdan boshqa kelishiklarning aniq qo'shimchalari mavjudligi darslikda berilgan jadval yordamida tushuntiriladi; bosh kelishikdagi ot gapda ega vazifasida, boshqa kelishikdagi otlar esa ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi bilan tanishtiriladi; oxiri yumshatish belgisi bilan tugagan (aprel, lager kabi) so'zlarga kelishik qo'shimchalari qo'shilganda, yumshatish belgisi yozilmasligi haqidagi qoida o'rgatiladi.

O'quvchilar o'zlashtirgan grammatik bilimlarini imloni o'zlashtirishda foydalana olishlari uchun ishni bajarishda izchillikka katta ahamiyat beriladi. Bajarilgan ish yozib boriladi: o'quvchilar avval gapda ot bog'langan so'zda shu otga savol beradilar va savolni qavs ichiga yozadilar; keyin so'roqqa qarab kelishikni aniqlaydilar. Masalan, yashaydi (qaerda?) – qishloqda (o'rin-payt kelishigi). Ular buni yaxshi o'zlashtirganlaridan so'ng, mashq tez bajariladi, yozish talab etilmaydi.

Ko'plikdagi otlarning turlanishini o'rganishda nutqda ko'plikdagi otlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini takomillashtirish maqsadi ko'zda tutiladi. O'quvchilar suhbat yordamida bosh kelishikdagi otning so'rog'ini va bitta narsani bildirishini aytadilar (nima?-kitob, kim? – o'quvchi); o'qituvchi agar shu ot ikki va undan ortiq narsani bildirsa, qanday so'roqqa javob bo'lishini, qaysi kelishikni bildirishini so'raydi, ular qiynalmay javob beradilar (nimalar? –kitoblar, kimlar? –o'quvchilar). Xulosa chiqariladi: ko'plikdagi otlar bosh kelishikda nimalar? yoki kimlar? so'rog'iga javob bo'ladi. O'quvchilar otlarning kelishiklar bilan turlanishi jadvalidan foydalanib, shu otlarni ko'plikda turlaydilar va ko'plik qo'shimchasi doim kelishik qo'shimchasmdan oldin qo'shilishini, so'roqlarini bilib oladilar.

Har bir kelishikni alohida o'rganishning vazifasi kelishikni o'rganish bilan bog'liq holda kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqidagi malakani shakllantirish va o'quvchilarning kelishiklar bilan turlangan otlardan ongli foydalanishlariga erishish hisoblanadi.

Kelishiklarni bilib olish maqsadida so'roqlardan foydalaniladi. Buning uchun o'quvchilar, birinchidan, so'roqni otning yakka o'ziga emas, balki gapda ot ma'no tomonidan bog'langan so'zdan sha otga berishni o'rganishlari, ikkinchidan, kelishiklarning so'roqlarini yaxshi bilishlari

zarur. Kelishiklarni o'zlashtirishda gapni asosini aniqlagach, gapda o'zaro bog'lanagan so'zlarni (so'z birikmalarini) belgilash, ot bog'lanagan so'zni topish, so'roq berib, qaysi kelishik bilan turlanganini, birlik va ko'plikda qo'llanganini aniqlash izchiligida ishni uyushtirish maqsadga muvofiq. (Masalan, Vohid Mirzohidni uyga taklif qildi. Gap Vohid haqida aytilgan; (Kim?) Vohid –ega (bosh kelishikda, birlik); Vohid (nima qildi?) – taklif qildi- kesim; taklif qildi (kimni?) – Mirzohidni (ot, tushum kelishigida, birlikda); taklif qildi (qaerga?) – uyga (ot, jo'nalish kelishigida, birlik).

Kelishiklarning xususiyatlarini o'rganishga qulaylik yaratish uchun har bir kelishikni quyidagi umumiy reja asosida o'rganish maqsadga muvofiq: 1. Kelishining grammatik ma'nosi. 2. So'roqlari. 3. Qo'shimchasi. 4. Gapdagi vazifasi. Kelishiklarni shu tarzda o'rganish ularni o'zaro taqoslashni yengillashtiradi va ongli o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Bir kelishik o'zining muhim belgilari (ma'nosi, so'rog'i, qo'shimchasi, sintaktik funksiyasi) bilan boshqa kelishiklardan farqlanadi. Muayyan bir kelishikdagi otdan ongli foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozish uchun o'quvchilar kelishiklarning muhim belgilarini puxta o'zlashtirishi talab etiladi, shuning uchun ham kelishiklarning muhim belgilarini o'zlashtirib, bir kelishikni ikkinchisidan farqlash ko'nikmasini shakllantirishga katta o'rin beriladi.

Bosh kelishikning xususiyatlarini o'rgatish bilan otning kelishik qo'shimchasi yo'q xolati bosh kelishik ekani, bosh kelishikdagi ot boshqa so'zni o'ziga tobe qilishi, kim?, kimlar?, nima?, nimalar? so'roqlariga javob bo'lishi, gapda ega vazifasida kelishi haqida o'quvchilarda ko'nikma hosil qilinadi; lug'atlarda otlar bosh kelishik formasida berilishi va bosh forma hisoblanishi, ba'zan egalik qo'shimchasi olib qo'llanishi bilan tanishtiriladi.

O'quvchilar qaratqich va tushum kelishigini farqlashda qiylanadilar, bir qo'shimcha o'rniga ikkinchisini ishlatadilar. Bu kelishiklarning xususiyatlarini o'rganishda bunday qiyinchilikning oldini olish va o'quvchilarda kelishiklardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini hosil qilish maqsadi ko'zda tutiladi. Bu maqsadga erishish uchun bu ikki kelishikning ma'nosi, so'roqlari, qo'shimchasi va gapdagi vazifasi taqqoslanadi va suhbat asosida xulosa chiqariladi.

Qaratqich kelishigida turlangan ot: 1) qarashlilik ma'nosini bildirib gapda boshqa otga bog'lanadi, u bog'langan ot egalik qo'shimchasi bilan qo'llanadi (o'quvchining daftari, daraxtning bargi kabi); 2) kim(lar)ning?, nima(lar)ning? Ba'zan qaerning? so'roqlariga javob bo'ladi; 3) –ning qo'shimchasi bilan qo'llanadi; 4) gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.

Tushum kelishigidagi turlangan ot: 1) harakatni o'ziga narsa ma'nosini bildiradi, gapda doim fe'lga bog'lanadi (o'quvchini ko'rdim, kitobni o'qidi kabi); 2) kim(lar)ni?, nima(lar)ni? ba'zan qaerni so'roqlariga javob bo'ladi; 3)-ni qo'shimchasi bilan qo'llanadi; 4) gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasini bajaradi.

O'quvchilarning bu ikki kelishik qo'shimchasidan nutqda to'g'ri foydalanish va ularni to'g'ri yozish haqidagi bilimni takomillashtirish uchun gapda otning qaysi so'z bilan bog'langanini aniqlash, so'roqlar o'rniga gapning mazmuniga mos so'zni kelishik bilan turlab qo'yish, tushirib qoldirilgan kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib ko'chirish mashqlaridan, saylanma va eslatish diktantlaridan ko'proq foydalaniladi.

Boshlang'ich sinflar programmasiga ko'ra o'quvchilarni qaratqich va tushum kelishigida otning belgisiz qo'llanishi bilan tanishtirish tavsiya etilmaydi.

O'quvchilar jo'nalish kelishigining xususiyatlari bilan tanishtirilgach, jo'nalish kelishigi qo'shimchasining yozilishi tushuniladi.

## 2.5. 3 - SINFDA OT SO`Z TURKUMI USTIDA ISHLASH

O`quvchilar 2-sinfda so`z turkumlari haqida boshlang`ich ma`lumotni olganlar. Ular kim?, nima? So`rog`iga javob bo`lgan so`zlar shaxs-narsaning tushunchasini bildirishi haqida amaliy ko`nikma hosil qilganlar. Endi o`quvchilarda shaxs-narsa tushunchasi bilan bog`liq “Ot”ning leksik va grammatik belgilarini shakllantirish vazifasi turibdi. Shu bilan birga, o`quvchilarning atoqli otlarning bosh harf bilan yozilishi, otlarning birlikda va ko`plikda qo`llanishi yuzasidan olgan bilimlarini boyitish va mustahkamlash lozim.

O`quvchilarning so`z boyligini yangi so`zlar hisobiga boyitish, ularda yangi so`z – otlarni o`z nutqida aniq va o`rinli ishlatish ko`nikmalarini hosil qilish lozim.

“Ot” mavzusini o`tishda otlarni leksik ma`nosiga ko`ra guruhlash, ma`nolarining xilma-xilligini kuzatish sinonim va antonimlar bilan tanishtirish yuzasidan lug`aviy-mantiqiy mashqlar otkaziladi. Otlarning ma`nolari va ularning turli grammatik shaklda qo`llanishiga oid ishlar nutq o`stirish mashqlari bilan bog`liq holda olib boriladi. O`quvchilar tabiatni kuzatish jarayonida aniq narsani bildirgan so`zlardan tashqari tabiatshunoslik darslarida, grammatik mashg`ulotlarda kishilar va ularning kasbi, jonli mavjudotlar, o`simliklar dunyosi, mehnat qilish asbob qurollari, tabiat hodisalari, turli voqea-hodisalar nomlarining ham ot ekanligini asta-sekin bilib oladilar. “Ot” mavzusini o`tishda leksik- grammatik hodisalarning har biri alohida emas, o`zaro bog`liq holda o`rganilishi, asosiy e`tibor kuzatilgan maqsad bilan bog`liq bo`lgan vazifani bajarishga qaratilgan bo`lishi lozim. Ammo nutq o`stirish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mashqlarini mavzuni o`tish jarayonining hamma bosqichida amalga oshirish lozim bo`ladi. Ta`limning samarador bo`lishi ham shu ishning to`g`ri shakllantirilishi bilan uzviy bog`liqdir. Xullas, o`quvchilarda ot turkumi haqida tushuncha hosil qilish uchun otning shaxs-narsa tushunchasini bildirishi, xarakterli grammatik belgilari va nutqimizdan vazifasi haqida ma`lumot berishga erishishimiz zarur.

1-dars.

Mavzu: Ot haqida tushuncha.

Darsning maqsadi: o`quvchilarga ot so`z turkumi haqida tushuncha berish, shaxslarni bildirgan otlarga kim?, narsalarni bildirgan otlarga nima? so`roqlarini berishga o`rgatish, o`simlik va hayvonlarga, tabiat hodisalari, qushlar, o`quv qurollariga to`g`ri so`roq berish va ularni guruhlab yozish malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning metodi: tahlil va tarkib.

Darsning jihozi: o`simliklar, o`quv qurollari, hayvonlar, qushlarning rasmlari.

Darsning borishi.

1.Darsni tashkil etish. O`quvchilarning darsga hozirliklarini kuzatish.

2.Yangi mavzuni bayon etish. Mavzu 190-mashqni bajarish orqali tushuntiriladi. Mashqda berilgan so`zlar o`qitiladi. Ularning har biriga so`roq berib, nimani anglatishi aniqlanadi.

- Birinchi so`zni o`qing (Televizor)
- Televizor so`ziga so`roq bering (nima?)
- Nima so`rog`iga javob bo`lgan so`zlar nimani bildiradi? (narsalarni bildiradi)
- Televizor so`zi nimani bildiradi? (narsani)
- Ikkinchi so`zni o`qing (Bola)
- Bola so`ziga qanday so`roq beriladi? (kim?)
- Kim so`rog`iga javob bo`lgan so`z nimani bildiradi? (Shaxsni)

So`zlar doskaga namunada ko`rsatilganidek, shaxs va narsalarga ajratib yozib boriladi. Mashqda berilgan boshqa so`zlar bilan ham shunday savol-javob o`tkaziladi. Javoblar umumlashtiriladi.

Narsa va shaxsni bildirib, kim? yoki nima? so`rog`iga javob bo`lgan so`zlar ot deyiladi. O`quvchilar bu qoidani darslikdan o`qiydilar, doskaga yozilganlarni ko`chiradilar.

Namuna: Shaxslar: kim? bola, ...

Narsalar: nima? kitob...

3.Didaktik o`yin. O`quvchilar o`rinlaridan turadilar. Koptokcha bilan zanjirli so`z o`yini o`tkaziladi: o`quvchi kim? yoki nima? so`rog`iga javob bo`lgan biror so`zni aytib, koptokni o`rtog`iga irg`itadi, o`rtog`i koptokni ilib oladi va aytilgan so`zning oxirgi qarori bilan boshlanuvchi so`z aytib, koptokni boshqa o`rtog`iga irg`itadi. (Masalan, o`qituvchi-ilon-lok-kosib-bola-anor...)

O`yin shunday davom etadi.

4.Darslik bilan ishlash 191-mashqdagi so`zlar o`qiladi. Ular qaysi so`z turkumiga kirishi aniqlanadi. Har bir guruhdagi so`zlar tahlil qilinadi va undagi so`zlarga o`quvchilar yana ikkitadan so`z qo`shadilar. Mashq og`zaki bajariladi. Har bir guruhdagi so`zlar tahlil qilinadi.

- Birinchi qatordagi so`zlarni o`qing: chopon, bo`yoqchi.
- Bu so`zlar qanday so`roqqa javob bo`ladi? (Kim? so`rog`iga javob bo`ladi)
- Yana ikkita kim so`rog`iga javob bo`lgan so`zlardan ayting.(Duradgor, surnaychi)
- Bu so`zlar qaysi so`roqqa javob bo`ladi.(Bular ham kim so`rog`iga javob boladi)
- Kim so`rog`iga javob bo`lgan so`zlar nimani bildiradi? (Shaxsni bildiradi)
- Shaxsni bildirgan so`zlar qaysi so`z turkumiga kiradi? (Ot)
- Ikkinchi qatordagi so`zlarni o`qing (Paxta, bug`doy)
- Bu so`zlar qanday so`roqqa javob bo`ladi? (Nima so`rog`iga javob bo`ladi)
- Paxta, bug`doy nimani anglatyapti? (O`simliklarni)

- Nima so`rog`iga javob bo`lgan o`simlik nomlaridan ikkita ayting. (Nohat, lavlagi)
- Bu so`zlar qanday so`roqqa javob bo`ladi? (Nima so`rog`iga)
- Bular hamma bildiriyapti ? (narsani)
- Narsani bildirgan so`zlar qaysi so`z turkumiga ? (ot so`z turkumiga kiradi )
- 3,4,5-qatordagi so`zlar ham huddi shunday tahlil qilinib, uchinchi qatorda hayvonlar, to`rtinchi qatorda qushlar, beshinchi qatorda ish qurollarga tegishli so`zlar berilgan ular ham nima? So`rog`iga javob o`quvchilar bilib oladilar.O`qituvchi javoblarni umumlashtiradi.Shaxslarni bildirgan otlar kim? o`simlik, hayvonlarni, qushlar, ish qurollarini bildirgan otlar nima? so`rog`iga javob boladi.

#### 5.Xusnixat mashqlari.

- Do`skaga sakkizta narsaning rasmini qo`yiladi. Rasm o`quvchilar bilan birgalikda kuzatib chiqiladi. O`quvchilarga ularning nomlari aytiriladi. Bular kundalik hayotda, ro`zg`orda ishlatilishi aniqlanadi. So`ngra rasmlar doskadan olib qo`yilib, o`quvchilar navbat bilan doskaga chiqib, rasmdagi narsalarning nomini yozadilar: qalam, tulki,daftar, kosa, ayiq, piyola, chizg`ich, qoshiq. Bu so`lar guruhlariga ajratiladi.

- Qaysi so`zlar o`quv qurollariga kiradi ? (Qalam, daftar, chizg`ich)
- Qaysi so`zlar idishlarning nomini bildiriyapti ? (Kosa, piyola, qoshiq)
- Qolgan so`zlar nimalarni bildiradi ? (Yovvoyi hayvonlarning nomlarini)
- Bu so`zlarga qanday so`roq beriladi ? (Nima?)
- O`qituvchi so`zlarni guruhlariga ajratib yozib boradi.

O`quv qurollari: qalam, daftar, chizg`ich.

Idishlar: kosa, piyola, qoshiq.

Yovvoyi hayvonlar: tulki, ayiq.

O`quvchilar bularni husnixat qoidalariga rioya qilib, ko`chirib yozadilar.

6. 192-mashqni bajarish. Bu mashq ham 191-mashqdagidek bajariladi.<sup>1</sup> Har bir so`z o`qilib, tahlil qilingach guruhlariga ajratib yoziladi. O`qituvchi ulardan xulosa chiqaradi. Shaxslarni bildirgan otlar kim? so`rog`iga javob bo`ladi. Kishilardan boshqa narsalarni (narsalarni, hayvonlarni, turli hodisalarni) bildirgan otlar nima? So`rog`iga javob bo`ladi. O`quvchilar bu qoidani darslikdan topib o`qiydilar. Doskadagilarni ko`chirib yozadilar.

1.Lug`at so`zlar bilan ishlash.

Piyola, poyezd, javon, farzand, karam, so`zlarining talaffuzi va imlosiga o`quvchilar diqqati qaratilib, piyola-pela yoki piyala, poyezd-poez, javon-jovon, farzand-farzan, karam-karom tarzida aytilsa ham, asliga ko`ra yozilishi uqtiriladi. Bu so`zlarning imlosini yodda saqlash tushuntiriladi.

<sup>1</sup> S.Fuzailov, M.Xudoyberganova Ona tili 3-sinf uchun darslik. Toshkent, 2008

2.O'tilgan mavzuni mustahkamlash

- "Ot" deb nimaga aytiladi?
- "Ot" lar qanay so'roqlarga javob bo'ladi?
- Qanday otlarga kim so'rog'i beriladi ?
- Nima so'rog'i qanday otlarga beriladi?

3.Uyga vazifa 193-mashq. Mashq o'quvchilarga tushuntiriladi: a) ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berish; b) ularni ko'chirib yozish; v) so'zlarning ustiga so'roqlarini yozish.

Namuna: Quyosh<sup>nima?</sup> chiqdi. Ishchi<sup>kim?</sup> zavodga keldi.

O'quvchilarni otlar kim?, nima?, kimlar?, nimalar? so'rog'iga javob bo'lib, bir shaxs-narsani yoki ko'p shaxs-narsani bildirishini farqlashga o'rgatishga qiyoslash metodidan foydalanish yaxshi natija beradi. Bunda bir shaxs-narsa bilan shu xildagi bir necha shaxs-narsalar o'quvchilarga ko'rsatilib, taqqoslanadi. Masalan, o'qituvchi bitta qaldirg'och rasmini ko'rsatib, o'quvchilardan so'raydi.

- Rasmda nimani ko'ryapsiz? (Qaldirg'ochni )
- U nechta ? (Bitta)
- Shaxs-narsaga so'roq bering.
- Nima?

So'ngra o'qituvchi bir necha qaldirg'ochning rasmin ko'rsatib so'raydi.

- Rasmda nimalarni ko'ryapsiz ? (Qaldirg'ochlarni)

Ularga so'roq bering.

- Nimalar?

Shu tarzda bir o'quvchi bilan ko'p o'quvchi, bir kitob bilan ko'p kitob qiyoslanadi. Buning natijasida bolalarga bir shaxsni bildirgan ot birgalikda, ko'p (ikki va undan ortiq) shaxs va narsani bildirgan ot ko'plikda bo'lishi uqtiriladi va ko'plikdagi otlar - lar qo'shimchasi yordamida hosil qilinishi tushuntiriladi. O'quvchilar birlik va ko'plikda qo'llangan otlarni matndan topish, bunday so'zlarga so'roq berish, birlikdagi ko'plikda, ko'plikdagi otni birlikda qollashga ko'nikma hosil qiladilar.

Mavzularni o'rganish jarayonida 3-sinf o'quvchilarining qalam so'ziga nima?, qalamlar so'ziga nimalar?, bola so'ziga kim?, bolalar so'ziga kimlar? so'rog'ini to'g'ri qo'ya olishlariga va ko'plik qo'shimchasi - larning talaffuzi va yozilishini bilib olishlariga erishishi lozim.

2-dars.

Mavzu: Otlarda birlik va ko'plik

Darsning maqsadi: O'quvchilarni birlik va ko'plikdagi otlar bilan tanishtirish, birlikdagi otlar bilan ko'plikdagi otlarni farqlash, ularga so'roqni to'g'ri qo'yish, birlikdagi otlardan ko'plikdagi otlar hosil qilish vositalari o'rgatiladi. Mustaqillikka yo'naltirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning metodi: mustaqillikka yo`naltirish.

Darsning jihozi: turli rasmlar.

Darsning borishi.

1.Darsni tashkil etish. Sinf va o`quvchilarning darsga tayyorligi kuzatiladi.

2.Yangi mavzuni bayon etish. 211- mashqdagi ikkita gap o`qiladi. O`quvchilar diqqati o`quvchi,o`quvchilar so`ziga qaratiladi.

- O`quvchi so`ziga so`roq bering ( kim? )
- O`quvchi – ot. O`quvchi nechta ot? (o`quvchi bitta ot)
- O`quvchilar so`ziga so`roq bering (kimlar?)
- O`quvchilar nechta? (o`quvchilar ko`p)
- O`quvchilar ko`plikdagi ot.
- Keyingi ikkita gap o`qiladi.

Mashqdagi bulbul, bulbullar, qaldirg`och, qaldirg`ochlar,kitob, kitoblar so`zlari yuzasidan ham yuqoridagidek, savol-javob o`tkaziladi.

Birlik va ko`plikdagi otlar aniqlanadi. Ulardan quyidagi xulosa chiqariladi: otlar birlik va ko`plikda bo`ladi. Birlikdagi otlar kim? yoki nima?, ko`plikdagi otlar kimlar? yoki nimalar? so`rog`iga javob bo`ladi. –lar qo`shimchasi birlikdagi otlardan ko`plikdagi otni hosil qiladi. Birlik va ko`plikdagi otlar doskaga quyidagi tartibdayozib boriladi:

Birlikdagi otlar	Ko`plikdagi otlar
o`quvchi	o`quvchilar
bulbul	bulbullar
qaldirg`och	qaldirg`ochlar
kitob	kitoblar

O`quvchilar doskadagi otlarni ko`chirib yozadilar.

3.212-mashqni bajarish. She`r o`qilib, so`roqlar yordamida otlarning birlik va ko`plikda ekani aniqlanadi.Ko`plikdagi otlarni birlikdagi otlarga aylantirib yoziladi. Namuna: sovuqlar-sovuq.

4.Saylanma diktant

Saylanma diktant uchun quyidagi gaplardan foydalanish mumkin.

1 Navbatchi sinf xonasini shamollatdi.

2 Kuzda daraxt barglari sarg`aydi.

3 Yengil shaboda esdi.

4. Kabutarlar osmonga ko`tarildi.

O`qituvchi gaplarni alohida-alohida o`qiydi.O`quvchilar gaplarni diqqat bilan tinglab, birlik va ko`plikdagi otlarni tanlab yozadilar.

Husnixat mashqlari. Husnixat uchun material.

Boshni fido ayla ato boshig`a,  
Jismni qil sadqa ano qoshig`a.  
Tun-kuningga aylagil nurposh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

She`r husnixat talablariga rioya qilingan holda ko`chirib yoziladi.

5.Darsni yakunlash, bilimlarni savollar bilan mustahkamlash.

- Birlikda va ko`plikdagi otlar nimasi bilan farqlanadi?
- Ko`plikdagi otlar qaysi qo`shimchaga ega.
- Ko`plikdagi otlarga qanday so`roq beriladi?

O`quvchilarning savollarga bergan javoblari xulosalanadi, darsga yakun yasaladi.

5.Uyga vazifa: 213-mashqda berilgan birlikdagi otlarni ko`plikka aylantirib yozish.

3-dars.

Mavzu: Ot yasovchi qo`shimchalar.

Darsning maqsadi: o`quvchilarni ot yasovchi qo`shimchalar bilan tanishtirish; -chi, -kor, -dosh qo`shimchalari bilan shaxs nomini bildiruvchi otlar, -zor, -loq qo`shimchalari bilan o`rinjoy nomini bildiruvchi otlar hosil qilinishini amaliy ko`rsatish, bunday otlarning ma`no va tuzilishi haqida tushuncha berish o`quvchilarni mustaqillikka, ijodkorlikka yo`naltirish, husnixat malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: izlanish, suhbat metodi.

Darsning jihozi: turli rasmlar va darslik.

Darsning borishi.

1.Darsni tashkil etish, sinf va o`quvchilarning darsga hozirligini kuzatish.

2.Yangi mavzu bayon etish.

Doskaga paxta, olma, gul, tosh va ikki qizni tasvirlovchi rasmlar osilib, ular yuzasidan quyidagicha suhbat uyushtiriladi.

- Rasmda nimalarni ko`ryapsiz? (Paxta, olma, gul, tosh, ikkita teng qizlarni ko`ryapmiz)
- Paxta so`ziga –kor qo`shimchasi qo`shib o`qing (Paxtakor)
- Paxtakor so`zi qaysi so`z turkumiga kiradi? (Ot so`z turkumiga kiradi)
- Paxta, paxtakor so`zlari uchun umumiy bo`lgan so`zni ayting (Paxta)
- Demak, paxta so`zning nimasi ekan? (o`zagi ekan)
- kor nima? (-kor –qo`shimcha)
- Paxta so`zi nimani bildiriyapti? (Narsani)
- Paxtakor so`ziga so`roq bering (Kim?)
- U so`zi nimani bildiriyapti (Shaxsni bildiriyapti)

- Narsa bildiruvchi otga –kor qo`shimchasini qo`shish bilan qanday ot yasaladi?

(Shaxs oti yasaladi)

- Kor qanday qo`shimcha ekan? (So`z yasovchi qo`shimcha ekan)

Olma, gul, tosh, teng so`zlariga –zor, -chi, -loq, -dosh qo`shimchalaridan mosini qo`shish orqali otlar hosil qilish, ular qanday otlar ekanini, nimani anglatishi, bu qo`shimchalar qanday qo`shimchalar ekani haqida yuqoridagi kabi savol-javob o`tkaziladi. Suhbat jarayonida hosil bo`lgan otlarni uzoq va qo`shimchalarga ajratib, ular doskaga quyidagi ko`rinishda yozib boriladi.

Paxta-paxtakor (shzxs oti)

Olma-olmazor (o`rin-joy oti)

Gul-gulchi (shaxs oti)

Tosh-toshloq (o`rin-joy oti)

Teng-tengdosh (shaxs oti)

3. Darslikbiln ishlash. 226-mashqning topshirig`ini mustaqil o`qib chiqish topshiriladi. O`quvchi mashqni qanday bajarish lozimligini so`raydi.

- Birinchi nima ish qilishimiz kerak?

- Mashqda berilgan ishlarni o`qiyimiz. Ajratib ko`rsatilgan so`zlarning o`zak va qo`shimchalarini aniqlaymiz.

- Ikkinchi nima qilish kerak?

- Ajratib berilgan so`zlarning o`zaklarini bir ustunga, so`z yasovchi qo`shimcha olgan so`zlarni ikkinchi ustunga yozish kerak.

- Uchinchi ishimiz nima?

- Birinchi ustundagi otlar bilan ikkinchi ustundagi otlarning ma`nolarini farqlash.

- Mashqda berilgan birinchi gapni o`qing.

- Havaskor qo`shiqchi quvnoq ohangda kuyladi.

- Ajratib ko`rsatilgan so`z qaysi?

- Havaskor.

Bu so`zning o`zak va qo`shimchalarini ayting.

- Havas-o`zak, -kor –qo`shimcha

So`ngra so`zlar ikki ustunga, ya`ni birinchi ustunga o`zak (havas), ikkinchi ustunga qo`shimcha olgan ot (havaskor) yoziladi. Suhbat jarayonida mashqda ajratib ko`rsatilgan otlar quyidagicha ko`rinishda doskaga yoziladi va ularning o`zak qo`shimchalari odatdagidek belgilanadi.

Havas-havaskor. Qo`shiq-qo`shiqchi. Temir-temirchi. Gul-gulzor. Ohang-ohangdosh.

So`zlarning ma`nolari aniqlanadi.

- Havas so`ziga so`roq bering (Nima?)
- Bu so`z nimani anglatadi? (Narsani)
- Havaskor so`ziga so`roq bering (Kim?)
- U nimani anglatadi? (Shaxsni anglatadi)

Mashqda berilgan boshqa so`zlarning ma`nolari ham shu taxlitda ko`rib chiqiladi.

Qo`shiq so`zi narsa nomini, qo`shiqchi so`zi shaxs nomini, temir so`zi narsa nomini, temirchi so`zi shaxs otini, gul so`zi narsa nomini, gulzor so`zi o`rin-joy nomini anglatishini o`quvchilar bilib oladilar.

1.227-mashqni bajarish. O`quvchilardan biri mashqning shartini o`qib, uni qanday bajarish kerakligini tushuntirib beradi. O`qituvchi doskada namuna ko`rsatadi.

Namuna: o`yinchi, surnaychi..

O`quvchilar mashqni mustaqil bajaradilar. Mashqni tekshirishda o`quvchilar yozganlarini o`qib, qo`shimchalarni aytadilar va so`zlarning ma`nosini izohlaydilar.

2.Lug`at ishi. Bastakor so`zining ma`nosi izohlanadi, surnay ohang, havaskor so`zlarining imlosi ko`rib chiqiladi.

Bastakor-kompozitor, qo`shiq, kuy, yaratuvchi.

Surnaychi, ohandosh, havaskor so`zlari bo`g`in, harf, tovush tomondan ko`rib chiqiladi. Har bir so`zning talaffuzi bilan imlosi o`rtasidagi farq aniqlanadi. Har qanday holatda ham bu so`zlar qoidaga mos ravishda yozilishi va bu so`zlarning imlosini yodda saqlash uqtiriladi. Imlosi o`rganilgan so`zlar bilan og`zaki gaplar tuzdiriladi, ularning ayrimlari aytib turib yozdiriladi: Havaskor qizlar raqsni zavq bilan ijro etdilar. Hofizlar ohangdosh qo`shiqlardan kuyladilar. Surnaychi surnayi ba`zan yuqoriga, ba`zan pastga qarab chalardi.

3.Husnixat mashqlari.

Shior: Ko`rkam bo`lsin yozuving

Yozuvga ber bor mehning

Husnixat shioriga amal qilgan holda quyidagi she`r ko`chirib yoziladi.

Bog`larimizda yayraymiz har dam,

Bilim olamiz, kuylaymiz bardam.

Dunyoda xalqlar kun kechirsa tinch,

Ota-onalar tashvish tortmas hech.

4.Darsni yakunlash va o`quvchilar bilimini mustahkamlash. Mustahkamlashda quyidagi savollardan foydalaniladi.

- Bugun darsimizda nimalar bilan tanishdik?
- Qaysi qo`shimchalar shaxs oti yasovchi qo`shimchalar ekan?
- Qaysi qo`shimchalar o`rin-joy oti yasovchi qo`shimchalar ekan?
- Ot yasovchi qo`shimchalar qanday vazifani bajarar ekan?

- Ot yasovchi qo`shimchalar so`zning qaysi qismiga qo`shiladi?

5. Uyga vazifa: 228-mashq.

So`z yasovchi qo`shimchalar yordamida hosil bo`lgan otlarni aniqlab, ularni ko`chirib yozish, ot yasovchi qo`shimchalarni belgilash lozimligi tushintiriladi va namuna ko`rsatiladi.

Namuna: tovushchi

6. O`quvchilar bilimini baholash.

## **2.6. "OT" MAVZUSINI O'RGATISHDA TA'LIMY O'YINLARDAN FOYDALANISH**

Boshlang'ich sinflarda bolaning zihnini o`stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko`rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga o'tganligi bilan karakterlanadi.

Bolaning o`quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanishi katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o`z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o`zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo`llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o`quvchilar faolligini, o`qish motivlarini rivojlantiradi. O`qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o`rin tutadi.


Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo`lishiga o`quvchilarning o`quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o`quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi.

Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o`quvchilarning bilimga bo`lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo`lishi mumkin. Ayniqsa qiyin o`zlashtiruvchi o`quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday o'yinlar samarali ta'sir ko`rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o`quv qo`llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko`zga tashlanib turadi. Shularni hisobga olgan holda boshlang'ich sinflar uchun didaktik materiallarni o`z ichiga olgan ushbu qo`llanmani yaratdilar. Bu qo`llanma boshlang'ich sinf o`quvchilari faoliyatini yanada boyitishga, o`quvchilarga bilim berish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishda ularga yordam beradi, deb umid qilamiz.

Ma'lumki, 1-sinfga qabul qilinib, maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar.

Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchi faoliyatida ularning sevimli mashg'uloti-o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlarni biz mazmuniga va amalga oshirish shakliga ko'ra ikki xil tasnif qildik.



Quyida 1- sinf ona tili darslarida o'ynash mumkin bo'lgan didaktik o'yinlar mazmuni bilan tanishtiramiz. Shu bilan birga, har bir o'yinni o'tkazish tartibini uch variantda misol tarzida keltiramiz. Didaktik o'yinlar mazmuniga ko'ra, qilingan tasnifiga asoslanib joylashtiradi.

Shuni eslatib o'tish joizki, ona tili va o'qish darslarida qo'llash uchun tavsiya qilinayotgan didaktik o'yinlardan foydalanishda qat'iy chegara mavjud bo'lmay, boshqa yuqori sinflarga ham moslashtirib foydalanish mumkin. Tinch o'yinlar. "O'zim tekshiraman" o'yini. Bunday o'yinlarni o'tkazishda o'qituvchi kichik hajmdagi diktantlarni tanlaydi.

Boshlang'ich sinflarning har bir sinfiga darsning boshlanishida qo'llash mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi. Barcha o'quvchilar diktantning yozib bo'lishgach, o'qituvchi doskaga diktantni yozib ko'rsatadi. O'quvchilar esa o'qituvchining yozganiga qarab, o'zlari yozgan diktantni tekshiradilar. Diktant oldin doskada yozilib, usti yopib qo'yilgan bo'lsa, o'qituvchi pardani ochadi. Bunday diktantlarni xatto alifbe davrida ham qo'llash mumkin bo'lib, o'qituvchi avval faqat harflardan, so'ngra (undosh harflar bilan tanishtirgach) bo'g'inlardan iborat diktant yozdirish mumkin.

1-variant: Oo, Ji, Ii, O'o'.

2-variant: -lo, -no, -to, -mi, -un

3-variant: bola, lola, ona, zar

4-variant: bugun havo issiq

"Hikoya" o'yini

O'qituvchi doskaga bir nechta so'z yzib qo'yadi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar.

Hikoya tuzish jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

O'quvchilarning vaqti-vaqti bilan rag'batlantirilishi ularning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Bu o'yindan ona tili darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda foydalanish mumkin.

1-variant: Nafisa, soat, kitob.

2-variant: Olma, kasal, o'rtoq

3-variant: Mushuk, bobo, non, poliz

“U kim, bu nima?”

Stol ustiga bir qancha narsalar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu narsalardan birortasini ta'riflaydi. O'quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar.

Bu o'yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o'quvchilar diqqatini jamlash, qo'llarga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin.

Bu o'yin o'quvchilarda ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, bu o'yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin.

1-variant: U shar shaklida. Uni katta-katta sportchilarimiz ham stadionlarda o'ynaydilar. Yosh bolalar ham uni sevib o'ynaydilar.

(Javob: “Koptok”)

2-variant: U barcha o'quvchilarning o'rtog'idir. Onalarimiz ham, otalarimiz ham uni juda yaxshi ko'radilar.

(Javob: “Kitob”)

3-variant: U shunday narsaki, bizga vitaminlarga boy mevalar beradi, xohlasak undan stol yoki stul ham yasash mumkin

(Javob: “Daraxt”)

“Noto'g'ri jumla”

Bu o'yin suratlar asosida o'tkaziladi. O'qituvchi ma'lum bir suratni tasvirlab berish jarayonida suratlarga tegishli bo'lmagan jummalarni ham ishlatadi. O'quvchilar ziyraklik bilan shu jumalani topishlari lozim.

O'quvchilardan bu o'yin davomida ziyraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ya'ni ular suratni kuzatish bilan birga tinglab turadilar. Har bir noto'g'ri jumla topa bilishi ularning sinchkovchi o'ziga bo'lgan ishonchini va darsga qiziqishini orttiradi.

Bu o'yindan faqat ona tili darslarida emas, balki darsdan tashqari mashg'ulotlarida ham foydalanish mumkun.

1-variant;(Manba:G'afforova T va boshqalar ona tili 1-sinf uchun darslik.-T; „sharq” 2003-yil.165-mashq 87-bet)

Samad aka duradgor.Uning qo'li gul.U o'g'illariga ham duradgorlikni o'rgatgan. Ular qushlar uchun in yasaydi. Singlisi Nigora esa ularga choy olib keldi.

(javob:Nigora suratda tasvirlanmagan.)

2-variant (Manba:Fuzailov S.,Xudoyberganova M. ona tili 3-sinf uchun darslik T.,'O'qtuvchi”2004-yil 122-bet 315-mashq.)

Daraxtdagi iniga qush tuxum qo'yib,bola ochti. Qush ovqat izlab ketganida mushuk uning bolalarini yemoqghi bo'ldi. Gulnora kitob o'qib o'tirgan edi. Qush mushuk bilan jang qildi va uni yengi, bolalarini qutqardi.

(Iavob:Gulnora xaqidagi jumla suratga taluqliy emes.)

3-variant (Manba: Fuzialiyov S.,Xudayberganova M.Ona tili 3-sinf uchun darslik „T “O'qituvchi”2004-yil 297-mashq 115-bet)

Bahorda dalada ishlar qizib ketadi. Maktab bog'ida ham ishlar qizg'in. Kamola bilan Botir gullarga suv quyushyapti.

(Javob:Dildora xaqidagi jumla suratga tegishliiy emas.)

“ Sirli so'z”

O'qituvchi o'quvchilarga sirli katakchalarda bir xil so'z necha marta yozilganligini topishini aytadi. Eng ko'p topgan o'quvchi g'olib sanaladi. “Sirli so'z ” o'yin o'quvchilarga boshqotirmalarni xal etishidagi dastlabki ma'lumotlarni beradi va ularning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

“Sirli so'z” o'yinni ona tili, o'qish darslarini samaradorligini oshirish uchun yoki turish etaklarning qiziqarli o'tishi uchun juda qo'l kelishi mumkun.

1-variant

n	o	n
o	o	o
n	o	n

2-variant

k	i	y	i	k
i	i	y	i	i
y	y	y	y	y
y	i	y	i	i
k	i	y	i	k

### 3-variant

a	z	i	I	a
z	z	i	z	z
i	i	i	i	i
z	z	i	z	z
a	a	i	z	a

“Harkatli o`yinlar”

“u nima nima qilyapti?” (“pantomimo”)

o`quvchilardan biri bolalar oldiga chiqarib ovozsiz harakatlar qilishadi. O`quvchilar jamoasi birgalikda uning harakatlarini izohlab berishlari lozim .

Bunday o`yin ona tili va o`qish darslarida o`quvchilar nutqini o`stirishi, ziyorlik va zeriktirmaslik uchun o`tkaziladi.

“Jonli hikoya”

O`qituvchi so`zlar yozilgan qog`ozlarni o`quvchilarga tarqatib beradi. Shundan keyin o`qituvchi o`quvchilarga hikoya o`qib beradi. (qogozlarda yozilgan so`zlar birgalikda shu hikoyani hosil qilishadi.) o`qituvchi hikoyani ikkinchi marta o`qib berganda o`quvchilar qo`llaridagi qog`ozlarni Shunday ketma-ketlikda joylashtirishlari kerakki, qog`ozlarga yozilgan so`zlar bir butun hikoyani hosil qilish lozim. Bu o`yinni o`tkazishda darslikdagi hikoyalar yoki darslikdan tashqari hikoya va ertaklardan foydalanishlari mumkin.

1-variant: Bahor kelishi bilan havo iliy boshlaydi. Daraxtlar gullab, maysalar ko`kara boshlaydi.

2-variant: Olimjon ko`chada yig`layotgan bolani ko`rib qoldi. U koptogini ariqqa tushirib yuboribdi. Olimjon bolaning koptogini olib berdi.

3-variant: O`rmon shoxi she`r yig`in o`tkazdi. Ular tulkixonni ishlarini muhokama qildilar. Tulkixon aybini bo`yniga oldi.

Aralash tipdagi o`yinlar.

“Kun va tun”

O`qituvchi doskaga ikki yoki undan ortiq so`zni yozadi. O`quvchilar o`qiganlaridan so`ng “Tun” deb buyruq beradilar. Bolalar ko`zlarini yumib oladilar. O`zlarini uxlaganga soladilar. O`qituvchi so`zlardagi biror harfni yoki bo`g`inlarni almashtirib qo`yadi. “Kun” degan buyruqdan keyin o`quvchilar ko`zlarini ochadilar va qanday o`zgarishlar bo`lganligini aniqlaydilar.

1-variant: Karima-Salima, oldi – qoldi, Sobir- Bobur, ola-bola.

2-variant: Bolalar-bolarilar, Sharif-Sharf, son-kon, qalam-alam.

3-variant: Kunduz-qunduz, qush-dush, o'quvchi-uchuvchi, kun-tun

“Meni tushun”

Bu o'yinni o'quvchilar diqqatini jamlash maqsadida ona tili va o'qish darslarida bo'ladigan dam olish daqiqalarida o'tkazish mumkin.

O'qituvchi buyumlar nomlari yozilgan qog'ozlarni stol ustiga teskari qilib qo'yadilar.

O'quvchilardan biri qog'ozlardan bittasini tanlab oladi va shu qog'ozga qarab unda nomi yozilgan buyumni shunday tasvirlashi kerakki, qolgan o'quvchilar gap nima haqida borayotganligini darrov tushinib javob berishlari kerak.

Bu o'yin o'quvchilarda ziyraklik atrof – muhitga qiziqish, sinchkovlik kabi xususiyatlarini vujudga keltirish va rivojlantirish uchun qo'l keladi.

1-variant: Bu yerga mevaning nomi yozilgan. U har xil –qizil, sariq, yashil rangda bo'lishi mumkin. Uni yegan bolalarning tishlari sog'lom bo'ladi.

(Javob: “Olma”)

2-variant: U daraxt doim yashil rangda bo'ladi. Yangi yilda esa yanada bezanadi.

(Javob: “Archa”)

3-variant: Uni daraxt shoxlarida qushlar quradilar. Ba'zan bolalar ham yasaydilar va daraxtlarga maxkamlab qo'yadilar. Qushlar unda tuxum qo'yib, bola ochadilar.

(Javob: “In”)

“Iztopar”

Doskaga so'zlarning ba'zi bir harfi tushirilib qoldirilib, terib qo'yiladi. “Iztopar” o'quvchi shu xarfni harf kassasidan topib, bo'sh o'ringa qo'yadi va hosil bo'lgan so'zni o'qiydi. To'g'ri topgan o'quvchi rag'batlantiriladi. Boshqa o'quvchilarda yana variantlar bo'lsa, ko'rib chiqiladi. Bu o'yin ayniqsa savod darslari samaradorligini oshirish imkonini beradi. Dars samadorligini oshirish bilan birgalikda, bu o'yin o'quvchilarda mustaqillik va ijodkorlikni ham rivojlantirishga imkon beradi.

1-variant:



A-n-ona,t-ota,p-opa.

2-variant:



H-i-in,u-un, o`-o`n.

3-variant:



T- I-it,o-ot,o`-o`t.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida „Talim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarining zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv tarbiya jarayoni didaktik jihatdan ta'minlash umumiy o'rta ta'limning asosiy shartlaridan biri,sifatida

belgilangan. Ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning bilimiga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarini mustahkam o'zlashtirish ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Pedagogik texnologiyalarni boshlang'ich sinfdan boshlaboq qo'llash ancha yaxshi samara beradi. Boshlang'ich sinf bola hayotida muhim o'rin tutadi. Bu davrda ta'limning pedagogik texnologiyalar asosida qiziqarli talqin etilishi bolani ta'lim jarayonida faollashtiradi.

Hozirgi kunda yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitishni yo'lga qo'yish, ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli sohalarini yaratish uchun tinimsiz izlanish o'qituvchining muhim vazifasi bo'lib qolmoqda. Binobarin, o'quvchilar pedagogik jarayonning faol sub'ektlariga aylanmoqlari lozim.

To'g'ri yozishga o'rgatishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish.

O'yin tartibi:

Xattaxta oldida besh olti kishilik o'quvchilar guruhi tuziladi. Boshlovchi har bir bolaga navbat bilan bittadan so'z birikmasini qo'shimchasiz holda aytib beradi. O'quvchilar esa birikmalarni mos qo'shimchalar bilan shakillantirib boradilar. Qo'shimchalarni notog'ri topgan, yoki umuman topa olmagan o'quvchi joyiga o'tiradi. O'yin 2-3 o'quvchi qolgunga qadar davom ettiriladi.

O'yin uchun birikmalar: (Nodirning kitobi) (ukamning o'yinchog'I) kitob o'qidim qo'g'irchoq o'ynayapti (kitobni o'qidim) (qo'g'irchoqni o'ynayapti) gullar sug'ordim tokcha qo'ydim maktab keldim biz xursand bo'ldi (maktabga keldim) (yonida turibdi)

“To'g'ri tanla o'yini”

O'yin tartibi:

O'qituvchi stoli ustiga uy va yovvoyi hayvonlar nomi yozilgan karton varaqalar aralashtirib qo'yiladi. 5-6 o'quvchidan iborat 2 guruh saflantiriladi va ularning bir guruhi uy hayvonlari, 2-guruh yovvoyi hayvonlarning nomlarini xattaxtaga ilib (yoki terib) berishadi

O'yin uchun so'zlar:

Uy hayvonlari: qo'y, echki, mol, it, mushuk, quyon, ot, eshshak

Yovvoyi hayvonlar: sher, yo'lbars, qoplon, bo'ri, tulki, ayiq.

Yuqoridagi o'yin quyidagi narsa va shaxs nomlari bo'yicha ham o'tkaziladi:

a) kasb egalri va qarindosh-urug'lar nomini;

b) idishlar va asboblarning nomi;

v) hayvonlar va daraxtlar; va h.k.

“So'z zanjiri o'yini”

O'yin tartibi:

5-6 o`quvchi xattaxta oldida tiziladi. Boshlovchi narsa nomini bildirgan so`zni aytadi. Navbatdagi o`quvchi bu so`zning oxiridagi tovush bilan boshlanadigan otni aytadi. To`xtalib qolgan o`quvchi o`yindan chiqadi.

Namuna:

Echki-ilon-nonvoy-yo`lbars-sichqon. v.h.k.

“Adashma o`yini”

O`yin tartibi:

Boshlovchi xattaxta yoniga saflangan 5-6 nafar o`quvchining har biriga bittadan so`z aytadi, o`quvchi o`sha so`zga –lar; qo`shimchasini qo`shib javob qaytaradi. Aytilayotgan so`zlar orasida –lar qo`shimchasini qo`shib bo`lmaydigan so`zlar bo`ladi. Bu so`zga –lar qo`shimchasini qo`shib aytadigan o`quvchi o`yindan chiqadi.

Namuna:

O`yin uchun so`zlar:

-kitob, daftar, gil, ko`m-ko`k, qush;

-qalam uchdi, men, daryo, bo`lmoq;

-dengiz, osmon, qog`oz, yashil.

“So`z yasa” o`yini

O`yin tartibi:

Xattaxtaga 2 ta ot yasovchi qo`shimcha yozib qo`yiladi, 2 ta guruh o`quvchilari musobaqa tarzida bu qo`shimchalarga o`zaklarni qo`shib yozadilar.

Namuna:

Gul gul

Chi zor

“Sifatini top” o`yini

O`yin tartibi:

5-6 nafar o`quvchidan iborat 2 guruh saflanadi. Xattaxtaga 2 xil meva nomi ilib qo`yiladi. Guruhlar musobaqa tarzida xattaxtada ilingan mevalar sifatini yozib boradilar.

Namuna:

Olma Anor

Shirin olma qizil anor

Ko`m-ko`k olma chuchuk anor

achchiq anor katta anor

Achchiq olma shirinanor

Qumloq olma dumaloq anor

Qizil olma kuzgi anor

Erta pishar olma achchiq anor

Shuningdek, xattaxtaga hayvonlar, parrandalar va narsalarning rasmlari ilinib, ularning sifatini yozilishi mumkin.

Masalan:

Ayiq	bo`ri
Katta ayiq	yirtqich bo`ri
Kichik ayiq	ochko`z bo`ri
Bahaybat ayiq	och bo`ri

“So`zni to`g`ri tanla” o`yini

O`yin tartibi:

O`qituvchi stoli ustiga 20 tagacha so`z yozilgan varaqalar qo`yiladi. Bu varaqalardagi so`zlarni ba`zilariga –si, -siz, -dor, qo`shimchalari qo`shilishi mumkin emas. O`quvchilar 2 guruhga bo`linib, musobaqa tarzida birin-ketin mos so`zlarni olishib, ularga sifat yasovchi qo`shimchaga qo`shilib, yasalgan so`zlarni xattaxtaga yoziladi. mos so`zni yozishda yanglishgan, ohirida qolgan guruh yutqazadi.

O`yin uchun so`zlar:

-li; suv, shi, gul, baland;  
-siz, barg, baho, go`sht, devor;

“Sonning otini ayt” o`yini

O`yin tartibi:

O`yinda ikkitadan o`quvchi ishtirok etadi. Bir o`quvchi sonni, ikkinchi o`quvchi bu songa bog`langan otni aytadi. Beshtadan so`z aytilgach, o`quvchilar o`zaro almashadilar. ot so`z turkumiga oid so`zni aytoilmagan o`quvchi o`yindan chiqib, navbatdagisi o`yinga kirishadi.

H a m u n a

1- o`quvchi	2- o`quvchi
besh	baho
o`nta	yong`oq
ikkita	qalam

“Nima qiladi?” o`yini

O`yin tartibi :

O`yinda 2 tadan o`quvchi ishtirok etadi. Birinchi o`quvchi narsa nomini, bildirgan so`z-fe`lni aytadi. 5 tadan birikma aytilgach, o`quvchilar almashadilar. O`yinda adashgan o`quvchi boshqasi bilan almashadi.

N a m u n a

1- o`quvchi	2- o`quvchi
qushlar	uchadi
baqa	vaqillaydi

ot	kishnaydi
quyon	chopadi
qo'y	ma'raydi

“ Birga uch” o'yini:

O'yin tartibi:

O'yinda ikkitadan o'quvchi ishtirok etadi. Birinchi o'quvchi narsa nomini, ikkinchi o'quvchi narsaning 3 xil harakatini bildirgan so'z-fe'llarni aytadi.

#### N a m u n a

1-o'quvchi:	2- o'quvchi
it	vovullaydi
ot	chopadi
eshak	tishlaydi

## *X U L O S A*

«Ona tili o'qitish metodikasi» fani ana shu talablarni o'quvchilar to'la o'zlashtirishlari uchun amalga oshirish zarur bo'lgan ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'limiy vositalar, darsni tashkil qilish usullar, darsliklarga qo'yiladigan talablar haqida yo'llanma beradi va ilmiy asoslarni ishlab chiqadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini tashkil etishda ona tili o'qitishning beshta tamoyiliga asoslaniladi va bu tamoyillar yuqorida sanab o'tilgan standart me'yorlarni o'zlashtirishda muhim omil hisoblanadi.

1. Til materiyasiga e'tibor berish tamoyili.
2. Til ma'nolarini tushunish tamoyili.
3. Tilga sezgirlikni o'stirish tamoyili.
4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili.
5. Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili.

Ona tili darslarida "Ot" mavzusini o'rgatish o'quvchilarning orfoepik va orfografik malakalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayrim otlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda tarkibida fonetik o'zgarish sodir bo'lishini o'rgatish orqali o'quvchilarning imlo malakalari shakllantiriladi.

"Ot" mavzusini o'rgatish davomida boshlang'ich sinf o'quvchilari narsaning nomlari, kishilarning ismi, hayvonlarning nomlari, joy nomlari ot so'z turkumiga kirishi haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

"Ot" mavzusiga doir ta'limiy mashqlarni bajarish davomida turli ta'limiy vositalarini qo'llash o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi.

"Ot" mavzusini o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalardan, didaktik o'yinlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

"Ot" mavzusini o'rgatishda turli ta'limiy vositalar ko'rsatmalilik, tarqatmali vositalar va texnika vositalaridan o'rinli va unumli foydalanish, ta'lim metodini to'g'ri tanlash va noan'anaviy dars usullarini qo'llash o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi. Umuman olganda, metodika tamoyillari o'quvchi bilan ishlashda amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalarni belgilab beradi. Bundan tashqari metodika pedagogik-psixologik ma'lumotlarga ham tayanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" asarida shunday savollarni o'rta qo'yadi: "Norasida bolaning miyasi, ongi nimani o'ziga singdira oladi, nimani qabul qilmaydi...."

Bolalarimizga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o'rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerak?"<sup>1</sup>

Bu savollarga pedagogik-psixologiya javob beradi, ta'lim jarayonida uchraydigan muammolarni bartaraf etish yo'llarini o'rgatadi, o'quv materialini tanlashda yordam beradi. Metodika psixologiya fani ma'lumotlaridan foydalanib o'quvchini to'g'ri baholash, fikrlash qobiliyatini o'stirish, ular bilan yakka tartibda ishlashda ma'lum yo'llanmalarga ega bo'ladi.

Ta'lim umuman olganda bu katta avlod tajribasini yosh avlodga o'rgatishdir. Bu o'rinda tajriba tushunchasi keng ma'noda tirikchilik va ilmiy bilimlar, faoliyat usullari, ijodiy faoliyat tajribasi, ma'naviy boylik ma'nosida qo'llanilayotir. Bu mazmunini berish usullari turlicha bo'ladi. Mazmuniga uning o'rgatish usullariga qarab, odatda, ta'lim sistemasi deb ataladigan ta'limning xilma-xil turlari vujudga keladi. Bu tizmlarni nazariy jihatdan tushuntirish esa didaktikadir.

Lekin birgina mazmunning o'zida ta'lim to'plangan tajribaning o'rgatish usullariga qarab, yoki aniqrog'i, o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabat turlari, ya'ni ta'lim tiplariga qarab belgilanadi, farqlanadi. Ta'lim jarayoni tuzilishining bu tipi va qoidalarini nazariy jihatdan tushuntirishni biz didaktik tizim sifatida mazkur mazmundagi ta'lim jarayonini-qanday o'qitish, qanday tashkil qilishni tushunamiz.

O'quvchiga bilim berishda, ularning nazariy ma'lumotini ongli tushunib yetishida turli metodik yo'l - yo'riqlardan foydalanishga to'g'ri keladi. O'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish berilgan nazariy bilim yuzasidan amaliy ko'nikma va malaka hosil qildirish o'qituvchining turli ta'lim metodlari ko'rsatmalilik, suhbat, tushuntirish va namoyish etish muammoli vaziyatni vujudga keltirish kabi metodlardan o'rinli foydalanishiga bog'liq. O'quvchining bilish faolligini oshirish ayni shu metodlardan unumli va o'rinli foydalanishga bog'liq.

Faollashtirish shiori ostida keyingi 10-15 yil ichida maktablar ta'lim va tarbiya sohasida sezilarli yutuqqa erishdilar. Biroq faollashtirish degan tushunchaning ma'nosi juda keng bo'lib, uning chegarasini intuitiv ravishdagina faxmlab olinadi. Modamiki, muammoli ta'lim jarayonini faollashtirar ekan, uni faollashtirishning eng samarali metodlaridan biri deb hisoblasa, mubolag'a bo'lmaydi. Ta'lim nazariyasiga doir e'lon qilinayotgan hozirgi fikrlarning ko'pchiligi ham o'quv jarayoni va o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirish g'oyasi bilan bog'liq. Odatda, faollashtirish deganda mualliflar an'anaviy didaktikadan ma'lum bo'lgan ta'limning o'sha usul va metodlaridan samarali foydalanishni nazarda tutadilar. Agar o'quvchi o'qituvchini faol tinglasa, mashq va uy vazifalarini namunali bajarsa, kitob o'qib, fan to'garaklariga qatnashsa, unday holda o'quv jarayoni faol bo'ladi, albatta. Agar o'qituvchi materialni tushunarli

---

<sup>1</sup> Barkamol avlod orzusi.

qilib bayon qilsa, ko`rsatmalilik hamda ta`limning texnik vositalaridan foydalansa, o`quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, yaxshi o`zlashtirmovchilar bilan ish olib borsa, o`quv jarayoni faol, ta`lim ham samarali bo`ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. I. A. Karimov «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz». T. O'zbekiston. 2000 y.
2. I. A. Karimov. “ Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent, 2008 y.
3. I. A. Karimov «Milliy istiqloq mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir». T. O'zbekiston. 2000 y.
4. Avliyoqulova N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. T. 2001 y.
5. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T. 2006y.
6. Ашрапова Ф, Одилова М. Она тили методикаси Т. “Ўқитувчи” 1984 й.
7. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. Diktantlar to'plami. T. 2006 y.
8. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T. «O'zbekiston» - 2002 y.
9. Volkov G.N., Baubekova G.D. Etnopedagogika. T. 2000 y.
10. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. T. «Aloqachi» - 2006 y.
11. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'eldasheva SH., Shodmonqulova D. Ona tili (4-sinflar uchun). T. «O'qituvchi». 2009 y.
12. . Махмутов М. Мактабда проблемали таълимни ташкил қилиш. Т. «Ўқитувчи» - 1984 й
13. Mirzaqulov T. Grammatika o'qitishning lingvistik asoslari. T. “O'qituvchisi” 1994 y. 56 –bet
14. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. Andijon 2006 y.
15. Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti. T. «O'zbekiston» - 1999 y.
16. Ho'jayev N., Hasanboev J. Iqtisodiy pedagogika. T. 2002 y.
17. Hasanboeva O., Hasanboev J., Pedagogika tarixi. T. 2004 y. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi.
18. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. T. 2005 y.
19. Xudoyberganova M va boshqalar. 3-sinfda ona tili darslari. Toshkent. 2004 y.
20. O'lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. T. 2002 y.
21. Qosimova K, Fuzailov F, Ne'matova A. Ona tili darsligi. 2 –sinf. Toshkent 2008 y
22. Қосимова К. Бошланғич синфларда она тили ўқитиш методикаси. Т. «Ўқитувчи» - 1985 й.
23. Qodirov B.R. Aqliy istedod XXI asrning eng qimmatli mulkidir. T. «O'zbekiston» - 1999 y.
24. Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004 y.
25. SHodmonov SH., Alimov R., Jqraev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T. «Moliya» 2002 y.

26. Fuzailov S, Xudoyberganova M. Ona tili 3 –sinflar uchun. T., 2008 y.
27. Yusupova M. Diktantlar to'plami. T.; "O'qituvchi", 2001. 80-bet
28. M.Hudoyberganova va boshqalar. 3-sinfda ona tili darslari. Metodik qo'llanma. Toshkent. 2004 yil
29. H.G'ulomova, SH. Yuldasheva 4-sinfda ona tili darslari. Metodik qo'llanma. Toshkent. 2003 yil.
30. Фуломов Ё. ва б. Ўзбек тили ўқитиш методикаси.Т.«Ўқитувчи»-1975 й.
31. G'oziyev E. O'zbek xalqining etnopsixologiyasi va bola tarbiyasi.
32. O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent, 1993. 8-9 s.
33. G'oziyev E.G. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1990.-184
34. G'oziev E.G. Psixologiya. Toshkent, "O'qituvchi", 1991.-220
35. G'ulomova X va boshqalar. 4 –sinfdan ona tili darslari. T.; "O'qituvchi", 2003.
36. G'ulomov A. 4-sinfda ona tili darslarida "O'qituvchilarning mustaqil ishlari". Toshkent, "O'qituvchi", 1992 y.
37. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari.T.; "O'qituvchi", 1992 y.
38. G'afforova S, Shodmonov E, G'ulomova X. Ona tili 1 –sinflar uchun. Toshkent 2009 yil.